

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJIY TILLAR FAKULTETI INGLIZ TILI VA ADABIYOTI
KAFEDRASI**

Темирова Зулайхо

**TEODOR DRAYZERNING "THE TITAN" ASARINING TARJIMADAGI
MUMMOLARI**

5111400- Xorijiy tillar (Ingliz tili va adabiyoti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: Ingliz tili va adabiyoti
kafedrasining katta o'qituvchisi Gavharoy
Isroiljon qizi

Andijon -2016 yil.

Ushbu bitiruv malakaviy ish ingliz tili va adabiyoti kafedrasining 2016 yil 27 may № 9 sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi.

Fakultet dekani: dots. M.A.Abduvaliyev

Kafedra mudiri: B.T. Jalilov

Ilmiy rahbar: _____

Taqrizchilar: _____

MUNDARIJA:

Kirish.....	4
I BOB . Tarjima va tarjimashunoslikning jahon adabiyotida tutgan orni	
1.1Dunyo tarjima tarixi.....	9
1.2. Tarjima nazariyasi va badiiy matn tushunchasi.....	13
1.3...Tarjima turlari va tasnifi.....	26
II BOB. Ingliz adabiyotida Teodor Drayzerning adabiy merosini o’rganish.	
2.1. Teodor Drayzerning hayoti va ijodiy faoliyati.....	34
2.2.Teodor Drayzerning (YUHO)“The Titan” asarining yaratilishi va undagi g’oya, qahramonlar va syujet masalalar.....	55
III BOB. Teodor Drayzerning “The Titan” asarining tarjimadagi muammolari va o’qitishga doir uslubiy tavsiyalar.	
3.1. Teodor Drayzerning “The Titan” asarining tarjimadagi muammolari va ularni bartaraf etish usullari.....	57
3.2.Asarni o’qitishga doir uslubiy tavsiyalar.....	63
Xulosa.....	70
Foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro’yxati.....	75

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlaridan boshlab davlatimiz nafaqat iqtisodiy-siyosiy sohada, balki ma'naviy-mafkuraviy hayotida ham ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Barchamizga aniq va ravshan ma'lumki, kelajak avlodning hayoti haqida qayg'urish, sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashga intilish bu bugungi kun mavzusi emas, balki bu o'tmish ajdodlarimizdan qolgan milliy qadriyatlarimiz va xususiyatlarimizdir. Davlat taraqqiyotiga erishish yo'lidan borar ekan, yana bir masalaga katta e'tibor haratishiga to'g'ri keladi. Bu albatta, o'z qobig'iga o'ralib qolmay, balki dunyo mamlakatlari bilan ham aloqador munosabatlar o'rnatish masalasidir. Bu sohada rivojlangan mamlakatlar tilini o'rganish zaruriyati tuqiladi. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu bejiz emas. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalarning ijobiy yechimiga erishishning bir yo'li demakdir. Shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarini o'rganish minbat ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi lozim.

Albatta, har bir xalq avvalo o'z qadriyatlari, xususan, ona tiliga e'tibor haratgan holdagina u o'zga tilni o'rganishga loyiq va layoqatli qisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi IX sessiyasidagi so'zlagan nutqida: "Hozirgi vaqtda chet tillarini o'rgatish olib borilayotgan ishlarda ham ona tiliga bo'lgan e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Ilmiy ishlar zamirida ham albatta ochib berilayotgan muammolar ona tilimiz, ya'ni O'zbek tili bilan qiyoslash orqali amalga oshirilmoqda".

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Kechagi tariximizda bizning g'arb tillarini o'rganishimizda ona tilimiz emas, balki asosan rus tili vositachi bo'lib keldi. Shuning uchun ham hozirgacha, misol uchun inglizcha -O'zbekcha, O'zbekcha- inglizcha lug'atlar juda ham kam. Buning natijasida, o'zbek maktablarini bitirgan bolalarimiz chet tillarini o'rganishda qiynalib qolmoqdalar." Bunday zaif va noo'rin holatlarni tezda o'zgartirish, o'zbek bolalariga chet tillarining ajib dunyosiga bema'lol kirish imkoniyatlarini to'liq ochib berishimiz

darkor. Mamlakatimizda xorijiy tillarning o'rganishning milliy asosdagi jadallashirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu-niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri–bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz ».

Bugungi kunda xorijiy tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etayotganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, ta'lim jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni ilg'or usullarini chet tili o'qitish amalyotida qo'llashni ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar keng quloq yozayotganligi kelajagimiz bo'lgan yosh avloddan chet tilini mukammal bilish zaruriyatini tobora oshirmoqda.

Yosh avlodni chet tillarini chuqur o'rgatish, jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalana oladigan muttaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantrish orqali mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvini kuchaytrishga xizmat qiladi.

Bir necha tilni bilish faqat axborot olish uchun xizmat qilibgina qolmay, kishining aqliy faolyati va fikrlash qobiliyatini ham rivojlantradi. Bu borada internet tizimidan keng foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prizidenti I A Karimovning 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1875–sonli yoshlarning xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora tadbirlar bo'limida: "uzluksiz ta'lim tizimida fanlarning o'rgatilishiga zarur shart- sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, o'zbekcha chet tillari lug'atlarini davlat tilidagi maxsus adabiyotlarini nashr ettirish kabi muammo va rejalar ishlab chiqilgan". Vatanimiz olimlari bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirdilar va oshirib kelmoqdalar. O'zbek tilshunosligida bir necha ilmiy ishlar yuzaga keldi. Bilamizki, tarjima tilni o'rganishda eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Shunday ekan bu sohada olib borilishi kerak bo'lgan ishlar hali talaygina.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi, "Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolari", til uslubi, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik orasidagi ilmiy tadqiqot bo'lganligi uchun ham dolzarbdir. Chunki til uslubi badiiy matnlarda tadqiq etish badiiy adabiyotsiz amalga oshmaydi, chunki til uslubi badiiy matnning jozibadorligi, bo'yoqdorligi, ta'sirchanligi, obrazlilik, jonli tilga ega bo'lishi uchun ahamiyati katta. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni til uslubi atidan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi, til uslubi atiga e'tibor berilmasa matn badiiy matn bo'la olmaydi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolari tahlil etiladi. Xususan, madaniy sohada faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarimiz tarjimada ifodalaydigan hodisalarni bilmay turib, ingliz tilida yozilgan badiiy matnlarning, maqollarning, hikmatli so'zlarning, prozaning tub ma'nosini, muallif nima demoqchi bo'lganini tushuna olmaydilar va tarjima qila olmaydilar.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi: Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolari mavzusida tadqiqotlar va izlanishlar olib borishdan oldin biz ko'plab adabiyotshunos olimlar va tanqidchilarning shu mavzuga yaqin bo'lgan ilmiy maqolalari va ilmiy asarlarini o'rganib chiqdik. Bu olimlar qatoriga biz Kaminskiy, Fedorov, Salomov, Засурский, Карчевская, Николаев, Сухаренко, Bronkovich, Parchevskaya kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida Teodor Drayzerning “The Titan” asarining tarjimadagi muammolari birinchi marta tadqiq etilmoqda. Mazkur ishda “Titan” (yuho) romanidagi tarjimada uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari tadqiq etildi va juda qiziqarli natijalarga erishildi. Bu lavhalar ilmiy tadqiqot ishi 2-bobining 2.2., 2.3. fasllarida namoyish etildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari va tadqiqot metodi: Ilmiy tadqiqot ishining metodologik asoslariga A.V.Kaminskiy, V.D.Fedorov, G’Salomovlarning tarjimaga oid kitoblari; K.Vanspenkerenning “Amerika adabiyoti asoslari”, Samoxvalov N.N. ning “Istoriya amerikanskoy literaturi” va “Pisateli S.SH.A. o literature”, Galperin I.R. ning “Stylistics”, Arnold I.V. ning “Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika”, Boboxonova L.T. ning “Ingliz tili stilistikasi” kabilar kiradi. Mazkur ilmiy tadqiqot deskriptiv metod asosida olib borildi. Romanda aks etgan til sathlari tarjimasi asosini tashkil etdi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy manbalari: Galperin I.R., Arnold I.V., Boboxonova L.T., Mirtojiyev M., Qo’chqortoyev I.Q., Qilichev E.R., Zasurskiy Ya.N., Suxarenko R., Nikolayev A., Menshova I., Nabakov V., Azimov Q., Qayumov O., Izzat Sulton, Boltaboyev H., Katheryn Van Spanckeren, Lehan Richard, Pizer Donald, Helen Dreiser, Menken H.L., internet saytlari hamda Teodor Drayzerning 1951-yilda nashr qilingan “Titan” nomli 3 tomlik trilogik asari va ushbu asarning Erkin Nosirov tarjimasidagi o’zbek tilidagi varianti mazkur ilmiy tadqiqot ishini yozishda asosiy manba vazifasini bajardi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Amerika yozuvchisi, Teodor Drayzerning “Titan” trilogik romanidagi lavhalar, maqollar, hikmatli so’zlarni tanlab olib, ularning badiiy tarjimasi tadqiq qilish va qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari mazkur ishning maqsadini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Qo’yilgan maqsadga erishish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

1. tarjimadagi til ifodalovchi vositalarni tahlil etish.

2. Adib hayoti va ijodiy merosini to'liq tasnifini berish.
3. "Titan" asaridagi tarjimaning o'ziga hos xususiyatlarini tahlil etish.
4. Teodor Drayzerning tarjimai holi, ijodiy faoliyati va "Titan" romanini yozish uchun unga zamin tayyorlagan omillarni o'rganish.
5. Teodor Drayzerning "Titan" romanida g'oya, mazmun va qahramonlar tadqiqini berish.
6. Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolarini o'qitishga doir uslubiy ko'rsatmalar berish.
7. Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolari bartaraf etish usullrini tadqiq etish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur ilmiy tadqiqot ishidan ingliz filologiyasida ta'lim olayotgan bakalavr va magistrlik bosqichidagi talabalar va yosh mutaxassislar til uslubiyati va adabiyot fanlaridan malakaviy-bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi yozish jarayonida nazariy va amaliy manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti va o'bekti: Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimasi va asarning matni ishning o'bekti, predmeti esa asarning mavjudligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi metodi: Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjimadagi muammolari mavzusi qiyosiy, tahliliy, tarixiy chog'shtirma metodlardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi strukturasi: Mazkur ilmiy tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB.

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIKNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

1.1 DUNYO TARJIMA TARIXI

“Dunyo tarjima tarixi- dunyodagi juda ko'p xalqlar adabiyotining o'sib borish, shakllanish jarayonlarini va o'zaro aloqalari qanday bo'lganligini ham aks ettiradi”[38.50.].

Tarjima jarayonlari yer yuzidagi xalqlarning insoniyat sivilizatsiyasini birgalikda, yaqin hamkorlikda yaratib borganini ko'rsatadi.

Ilk tarjimalar insoniyatning bir-biriga tomon ochgan karvon yo'llarida tug'ilgan. Folklor va xalqlarning turli o'yinlari bilan tanishish va tomoshalarda tillardan tillarga tarjimalar ishtiyoqi va ehtiyoji tug'ilgan

Tarjima tarixi turli xalqlar adabiyotlarining bir –biridan ajralib , cheklanib qolganini emas , balki, aksincha, hamma vaqt - juda qadim zamonlardan tortib hozirgi kungacha, bir-biriga intilib, yaqinlab borgani, bir-biridan ta'sirlanib taraqqiy etganligini isbotlamoqda.

Dunyo tarjima tarixi deganda Sharq va G'arb adabiyoti tarjima tarixini tushunish va ularni bir –biridan ajratib qo'ymagan holda o'rganishni nazarda tutish to'g'ri bo'ladi

Tarjima tarixi Eng Qadimgi dunyo, O'rta Asrlar ,Yangi va Eng Yangi deb ataladigan , juda uzoq davom etadigan tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi.

Qadimgi zamonlardan bugungi kungacha tarjima yer yuzining O'rta yer dengizi havzasi, Sharqda Ikki Daryo Oralig'ida yashovchi xalqlar(shumerlar, suroniylar, bobulonliklar, ossuriyaliklar ,xetlar)Misr, Eron,Xindiston ,Xitoy,Turon mamlakatlari mintaqalarida ayni bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy madaniy aloqalar vositasi , ham yozma adabiyotning bir turi , tarmog'i sifatida rivojlandi.

Bu shunday madaniy jarayonki, tarjima adabiyotlari tarixidan ijtimoiy tuzumlar, tabaqalarining o'zgarishlarinigina emas, inson ongida kechgan o'zgarishlarning evolutsion jarayonlarini ham aniq kuzatish mumkin

Miloddan avvalgi III-I asrlardagi ellinizm madaniyati deb ilmda atalib kelayotgan madaniyat gullab yashnayotgan davrlarda, Aleksandr Makedonskiy Sharqqa –to Turon, Xitoy, Shimoliy Hindistonga do'vur yurishlaridan so'ng Aleksandriya, Pergam, Antioxiya degan yangi madaniy shaharlarda dunyoning yangi madaniyat markazlari bino bo'ldi. Bu yerlarda yunoncha museyon deb ataladigan qiroatxonalar va kutubxonalar vujudga keldi. "Papiuslar poytaxti" deb nomlangan Aleksandriyada Ptolomey n podshohlarning sulolalari 500 mingdan ortiq kitoblarni butun dunyodan yig'ib to'pladilar va museyonlarda turli mamlakatlardan to'plangan olimlar, tilmochlar, turli tillarning bilimdonlari, tarixchilar, sahhoflar kitob ta'mirlovchilar turli tillardagi matnlarni qiyoslash, tuzatish, tarjimalar qilish, kitob shaklida ko'paytirish va nusxa ko'chirish bilan shug'ullandilar.

Mana shu Aleksandriyada Ptolomey Filadelf zamonida (islom olamida bu nom Almajistiy shaklida tanish) miloddan avvalgi 285-246 yillarda butun insoniyat sivilizatsiyasining taqdiriga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan, tarixda buyuk bir o'zgarish yasagan tengsiz bir o'zgarish bo'ldi "Tavrot"ning eng qadimgi besh muqaddas kitobi (Qadimgi Ahd) yunon tiliga tarjima qilindi. Bu Tarjima insoniyat tarixiga "Septuaginta" nomi bilan kirdi. Tarjima jarayonining o'zi ham g'oyatda ustalik hamda bilimdonlik va donishmandlik bilan tashkil etildi. "Tavrot" yunon tili bag`rida qaytadandunyoga keldi. "Tavrot" ning yunoncha tarjimasi asliyat matniga har jihatdan muvofiq va asil ekvivalent sifatida qabul qilinib tan olindi, qonunlashtirildi. Shu tariqa tarjima tufayli va uning vositasida xristianlikning qonunlashtirilgan muqaddas kitob yuzaga keldi. O`sha davrlarda Avestoning ham muhim kitoblari yunon tiliga o'girildi. Uning matnlari tarjimalarida asliyatga to'g'rilik, ma'noni buzmaganda tarjimani chiqarish, ilohiy matnlarning yuksak shoironaligi, hayajonlarini saqlash birinchi o'ringa qo'yilgan

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik fan sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz bir necha asrlar mobaynida qabul qilingan va rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Lingvistik tarjimashunoslikning ahamiyati shundan iboratki, u tarjima amaliyotida tarjimonning matn tarjimasiga "intuitsiya" yo'li bilan yondashishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbek lingvistik tarjimashunosligining asoschisi G'aybullay Salomov tarjimaga quyidagicha ta'rif bergan: "Tarjima – bu ilhom, yuksak iste'dod va intuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug'aviy mehnat hamda o'rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir". Tarjima turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi vositadir. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-birlariga bo'ladigan ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.

O'zbek kitobxonlari inglizabon mualliflar asarlari bilan XX asrning 30-yillaridan boshlab yaqindan tanisha boshlaganlar. Ushbu asarlar o'zbek tiliga asosan rus tili orqali tarjima qilib kelindi va afsus bilan qayd etish lozimki, ingliz tilidan bevosita tarjima qila oladigan haqiqiy mutaxassislarning yo'qligi sababli

ingliz tilida ijod qilgan mualliflar asarlari o'zbek tiliga hamon rus tili orqali o'girilmoqda. Bu esa tarjima jarayonida muharrar yo'l qo'yiladigan nuqsonlar miqdorining ikki baravar oshib ketishiga olib kelmoqda. (Uliss misolida salbiy oqibatlar haqida; Pirmqul Qodirov fikrida jon borligi) Lekin shuni quvonch bilan aytishimiz joizki, asrimizning boshlaridan boshlab mamlakatimizda bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish harakatlari ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunda tarjimonlarimiz xorijiy tildagi matnlarni to'g'ridan-to'g'ri ona tilimizga va ona tilimizdan xorijiy tilga tarjima qilmoqdalar. (Alisher Otaboev (Jeyms Joysning "Evelin" hikoyasi; Somerset Moemning hikoyalari), Shahnoza Akbarova (Jon Lutsning "Erto'ladagi xona" hikoyasi), Nurbek Abdullaev (Jek Londonning Mak-Daffining bahosi hikoyasi; Dinara Sultonovanning ingliz shoirlari she'rlari tarjimasi; Hulkar A'zam "Oshin"asari, "Esmeralda" ko'p seriyali kinolentasi tarjimonlari) Bu esa o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan batafsilroq tanishishlari uchun imkoniyat yaratib berish baravarida yaqin kelajakda tahlil va tadqiq uchun ham shubhasiz zaruriy material hozirlay oladi deb umid qilishimiz mumkin. Lingvistik tarjimashunoslik o'z tadqiqotlarini boshqa qator an'anaviy filologik, ayniqsa, lingvistik tadqiqot metodlaridan o'rni bilan foydalangani holda ko'proq chog'ishtirma tilshunoslik metodi bilan olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zaruriyati komponent tahlil metodidan foydalanishni taqozo etadi.

1.2. TARJIMA NAZARIYASI VA BADIY MATN TUSHUNCHASI

Tarjima nazariyasi, boshqacha aytganda, tarjimashunoslik tarjima jarayoni, uning qonuniyatlari, asliyat va tarjima matnlari ustida olib borilayotgan kuzatishlarni umumiyashtirish, sistemalashtirish orqali ikki til orasidagi muvofiqliklar darajasini, ularning o'ziga xos xususiyatlari mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan filologiya sohasidir. Uning vazifasiga tarjimonning milliy madaniyat rivojidadagi o'rnini belgilash, amaliy va nazariy jihatlarini ko'rib chiqish ham kiradi. Tarjima nazariyasining tadqiq ob'ekti tarjima jarayoni, tarjima nazariyasini rivojlantirishga asos bo'luvchi turli asarlar va ularning tarjima matnlaridir. Tarjima nazariyasini umumiy, xususiy va maxsus nazariyalarga ajratish tarjimashunoslik sohasida umume'tirof etgan qoidalardan biridir. Tarjimaning umumiy nazariyasi tarjima jarayonining universal qonuniyatlarini, janriy talablardan qat'iy nazar, tillararo, stilistik, vazifaviy muvofiqliklarning asoslarini o'rgansa, xususiy nazariya konkret bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Maxsus nazariya esa, tarjimaning janriy- stilistik xususiyatlariga ko'ra bo'lingan turlarining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganadi. Tarjima o'zining janriy-stilistik xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Biri sohaviy (ilmiy, texnik, publitsistik va shokazo) tarjima turi bo'lsa, ikkinchisi badiiy (she'riy, nasriy) tarjimadir. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot namunalaridagi kommunikativ ta'sirning yorqin ko'rinishlaridan biri bo'lgan badiiy-estetik zavqni uzatish sanaladi. Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv – tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslar tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar.

Adabiyotshunoslar esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy-estetik va badiiy faoliyatiga qaratadilar. Ular uchun

muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. Oxirgi yillardagi jahon tarjimachiligi amaliyoti tarjima ishlarining saviyasiga tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlarining uyg'un holda birlashishi ijobiy ta'sir etishini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunos estetik ta'lil va adabiyotshunoslik yondashuvidan xoli bo'la olmaydi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunos ham tarjima ustida fikr yuritar ekan, lingvistik jihatlar va til normalarini xatlab o'ta olmaydi. Tarjimashunos olim M.Xolbekov xorijlik tarjimashunos olimlarning ilmiy kontseptsiyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi kommunikativ vositaga aylanganligi tarjimaning lingvistik va adabiy aspektlari tarafdorlari o'rtasida e'tirof etilayotganini alohida ta'kidlaydi [14.56.]. Tarjimada asliyatdagi kabi estetik ta'sirni hosil qilish, badiiy obrazni to'liq gavdalantirish ayrim hollarda tarjimanni jumla qurilishlarini o'zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo'llashga majbur qilishi mumkin. Biroq ekvivalentlik tamoyillarini buzishi va holatliy manzaradan uzohlashishi mumkin emas. V. Komissarov keltirgan misol va sharx bizning fikrlarimizga yaxshi dalil bo'lishi mumkin: "But night- time in this dreadful spot!" – Night, when the smoke was changed to fire; when every chimney spurted up its flame; and places, that had been dark vaults all day, now shone red hot, with figures moving to and fro within their blazing jaws and calling to one another with hoarse cries (Ch. Dickens) A kakaya strashnaya bo`la zdes noch! Noch, kogda do`m prevrahalsya v plamy, kogda kajdaya truba polo`xala ognem, a proemo` dverey, siyayuhie ves den chernotoy ozaryalis bagrovo`m svetom, i v ix po`shuhey jarom pasti metalis prizraki, siplo`mi golosami pereklikavshiesya drug s drugom (Per.N. Voljinoy). Tarjimon, avvalo, boshpanasiz qizchanning tasavvuridagi tunning dahshatli manzarasini badiiy bayon qilish istagi bilan ish ko'radi, deb shar?laydi tarjimashunos olim. Ushbu vazifani bajarish uchun tarjimon jumla strukturasi o'zgartiradi ("noch v etom ujasnom meste" > "kakaya strashnaya bo`la zdes noch"), ayrim so'zlarga mu?obillar topadi (changed to fire – prevrahalsya v plamy, spurted up flame – polo`xala ognem, figures - prizraki), holatni o'zgacha tarzda bayon etadi (places that had been dark vaults all day, t.e. "tam, gde ves den

bo`li cherno`e sklepo`”, zamenyaetsya bolee ponyatno`m “proemo` dverey, siyayuhie ves den chernotoy”). Komissarov fikricha, ushbu o`zgartirishlar qanday baholanishidan qat'iy nazar, ularni badiiy tarjima talab qilgan bosh vazifa, ya'ni estetik-hissiy ta'sirni uzatish istagidan kelib chiqqan ekvivalent yondashuv deyish mumkin [21. 8.]. Badiiy tarjima, o`z navbatida, she'riy va nasriy tarjima turlariga bo`linadi. Ular ham badiiy adabiyotning janrlariga arab she'r, dramatik asarlar, roman, qissa, hikoya va hokazo tarjima yo`nalishlariga bo`linadi. har bir yo`nalishning yuqoridagi ikki tur talablaridan kelib chiqib, umumiy va farqli jihatlari mavjud. Bu jihatlari aslyat mansub bo`lgan qonun-qoidalarni belgilab beradigan mezonlarga bog`liq yondashuvlar mohiyatidan kelib chiqadi. Badiiy tarjima nazariyasi rivojida turli fanlarning, jumladan, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, matnshunoslik sohalarida to`plangan boy tajriba katta o`rin egallaydi. Madaniyatlararo kommunikatsiya qonuniyatlarini aniqlash, aslyat tarjimasida keng qamrovli axborotni aks ettirish va ularni teng darajada uzatish usul hamda vositalarini tadqiq etish ayni fanlar yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Ayniqsa, til va matn inson ma'naviy hayotini aks ettiruvchi ko`zgu sifatida tarjima nazariyasi va matnshunoslik fanining chambarchas bog`liqligini ko`rsatadi. Matnning bir necha ta'riflari mavjud. Matnshunos olimlardan biri L. Loseva matnning quyidagi uch belgisini ko`rsatib o`tadi: 1) matn – bu, yozma shakldagi axborot; 2) matn mazmuniy va strukturaviy tugal ko`rinishga ega; 3) matnda muallifning taqdim etilayotgan axborotga munosabati o`z aksini topadi (muallif yondashuvi) [37.67.]. Tarjimaning umumiy nazariyasida og`zaki matn tiplari bilan bog`liq ko`zda tutilgan badiiy, rasmiy, ijtimoiy-axborot, ilmiy-texnik, musiqaviy kabi yana bir qancha matn tiplaridan farqli badiiy tarjimada faqat yozma matn ustuvor hisoblanadi. Badiiy matnlar janriy, uslubiy va vazifaviy jihatlari ko`ra bir- birlaridan jiddiy farqlanadilar. har bir matn turi tarjimoni alo`hida yondashuv va talablarga rioya qilishga majbur qiladi. Badiiy matnlar janriy-shakliy jihatdan nasriy, nazmiy, dramatik va hokazo tiplarga bo`linadi. Matn tiplari tarjima usul va vositalarini erkin tanlashga izn bermaydi. har bir adabiy tur va janrning o`z

qonuniyatlari kabi shakllari ham tarjimada aynan saqlanishi lozim. Badiiy asar matni tahlili tarjima jarayonida amalga oshiriladigan dastlabki vazifadir. Badiiy matn yuqoridagi belgilardan tashhari o'ziga xos belgilarga ham egaki, ularni bilmasdan turib, tahlilga kirishish qiyindir. Badiiy matn (she'riy, nasriy, dramatik) estetik yuk va muallifning shaxsiy g'oyaviy maqsadidan kelib chiqib muayyan alohidalik kasb etadi. Bu o'ziga xoslik muallifning ijodiy shaxs sifatidagi uslubiy betakrorligidan darak beradi. Muallifning obrazli tafakkuri badiiy ijodning muhim xususiyatidir. Uning fikrlari va hissiyoti nutq vositalari orqali badiiy nutqning obrazli bo'lishiga xizmat qiladi. hayotni badiiy aks ettirish, voqelikni obrazlar orqali aks ettirishdir. Badiiy matnda biz bir obraz emas, balki obrazlar tizimi bilan to'qnashamiz. Shu jihatdan badiiy matnda obrazlarni tahlil qilganda ularning g'oyaviy- estetik mazmuni va badiiy matn tilini o'rganish muhimdir. Nasrda muayyan tasvir bayoni ko'p joyni egallasa, she'rda bir misra yoki bandda ifoda etiladi. Kichik hajmdagi she'riy ifodada katta ma'no va estetik manzarani berish mumkin. She'rda qanchalik sintaktik konstruktsiyalar kamaytirilib ma'no va hissiyotga ur'u berilishi, uning obrazlilikini keltirib chiharadi. She'rning ohangdorligi badiiy matn musiqiyligini ta'minlovchi muhim omildir. Shu nuqtai nazardan she'r arxitektonikasi badiiy matnning janriy mansubligidan xabar beruvchi birinchi ko'rsatkichdir. She'r tarjimasida matnni tashkil etuvchi uch asosiy vosita – vazn, qofiya va ifodalilik musiqiy ohang tufayli o'quvchini o'ziga rom etadi, unga kommunikativ ta'sir ko'rsatadi. Badiiy tarjima nazariyasida ohangni uzatish jarayoni eyfoniya (ohang jilosi), ohang tasviri (suv jildirashi, qo'ng'iroq ovozi, ummon to'liqlari zarbi kabi tovushli obrazlarni tasvirlash) va muayyan kayfiyatni hosil qilish vositalari orqali etkazilgan badiiy zavqni tuyishdan boshlanadi. Tarjimon adabiyot nazariyasi tamoyillari, qonuniyatlari va predmetini chuqur o'rganishi lozim. U she'riyatdagi adabiy usullar, jumladan metafora va metonimiya kabi o'xshatish usullarini, ifrot (o'ta mubolag'a), tadrij, tajnis, tanosub, majoz kabi badiiy san'atlarni, grammatik o'zgartirishlar orqali hosil qilinadigan anafora, alliteratsiya kabi eyfonik usullar, inversiya hodisasi mo'hiyatidan yaxshi xabardor bo'lishi talab qilinadi. Nasriy asarlar matnida esa

kompozitsiya va syujet bir-biridan ajralmas bo'lib, muallifning g'oyasi uning til boyligi va filologik bilimlari doirasida izchil rivojlantirilib boriladi. Badiiy matnda yozuvchi asarning mavzusi, mazmun-mo'hiyati va personajlarning xarakteriga harab so'z va ibora tanlaydi, sintaktik qurilish, leksik-grammatik va semantik usullardan unumli foydalanadi. Matnda adabiy til normalari bilan bir qatorda jonli(so'zlashuv) til imkoniyatlari ham baravar qo'llaniladi. hatto personaj tilini individuallashtirish uchun jargon iboralar ishlatiladi. Dramatik asarlar matni janriy va lisoniy xususiyatlariga ko'ra yuqoridagi badiiy matn turlaridan ajralib turadi. Unda muallif bayoni keltirilmaydi va sahna ko'rinishlari va personajlarning dialoglari vositasida asarning g'oyasi, syujet va kompozitsiyasi namoyish etiladi. Dramatik asar muallifi o'z qahramonlarining lirik kayfiyatlarini ularning nutqi va xatti-harakati orqali jonlantiradi. Personajlarning iboralari, tili uning obrazini ochib berishga xizmat qiladi. Ularning dialog va monologlari muallifning matn ortidagi munosabatini belgilaydi. Ushbu munosabatni tahlil qilish dramatik asar matnida yashirin muallif dunyoharashi, zamonasining g'oyaviy-estetik yo'nalishini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Shuningdek, dialog va monologlar, personajlarning xulq-atvori, mimikasi, tili, kiyim-kechagi, o'tirish-turish tarzi bayonidan asarning milliy koloriti haqida xulosa qilish mumkin. Badiiy matn badiiy adabiyotning barcha janriy rang-barangligi aks etadi. Unda hissiyot va estetik did hukmron bo'lib, bayon shakli katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyotda voqelikni mantiqiy idrok etishdan ko'ra, badiiy va xissiy-emotsional qabul qilish kuchliroq. Mazmunning qanday shaklda va qay tarzda bayon qilinishga harab, asarning o'quvchiga ko'rsatadigan hissiy ta'siri va estetik qimmatini yuqori bo'ladi. [31.34.] M.Xolbekov Tarjima nazariyasining lingvistik printsiplari (1980-2000 yillar)G` Filologiya masalalari, 2009 yil, 1-son, [34.49-53-betlar] V. Komissarov, Teoriya perevoda, Moskva, 1990, IV glava, str. 71 [34.56.] Loseva L. M. Kak stroitsya tekst. M., 1980 s.4 Podelitsya]

Tarjima adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning eng faol, eng ommalashgan va eng mahsuldor formasidir. "Tarjima do'stlik ilmidir, tarjima uzoqni yaqin qiladi, tarjima o'zgani birodar, tanishni qadrdon, do'stni qarindosh qiladi". Ayni paytda,

tarjima – san`at. San`atning oddiy turlaridan emas. Tarjima sehrgarlik san`atidir. Tarjima ijod ahli uchun darsxonasi keng bo`lgan “adabiy tahsil, mahorat maktabidir”. Shuning uchun jahon adabiyoti tarixida, uning boyishi, yangi-yangi asarlar evaziga mazmundor bo`lishida tarjima va tarjimonlarning ulushi benihoya salmoqli.

Ko`ngillar aro ko`prik vazifasini o`tayotgan tarjima – adabiy aloqa va o`zaro ta`sir tarixida ham nurli sahifalarini tashkil etadi. Necha yuz yillar davomida tarjima tufayli bir adabiyotda paydo bo`lgan asar jahon kezadi, million-million qalblarga shavqu surur, estetik zavq bag`ishlaydi, ma`naviy oziq beradi, ajoyib va original asarlarning bunyodga kelishida ijobiy hissa qo`shadi. Hofiz va Sa`diy, Jomiy va Navoiy she`riyati bilan G`arbni, Shekspir va Bal`zak, Dante va Gyotening mo``jizakor asarlari bilan Sharq kitobxonlarini ham oshno etgan, ular qalbida junbish uyg`otgan, badiiy so`z san`atining qudrat va quvvatini namoyish etgan ham ana o`sha tarjimadir.

Jahonning aksariyat adabiyotlarida bo`lgani kabi, o`zbek va fors-tojik adabiy aloqalari tarixida ham tarjima adabiyoti hal qiluvchi rol` o`ynaydi. XIV-XV asrlardayoq fors-tojik tilida yaratilgan eng yaxshi asarlardan o`zbek kitobxonlarini bahramand etish harakati boshlangan edi. Natijada, Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning “Xisrav va Shirin”, Haydar Xorazmiy shu buyuk so`z san`atkorining “Maxzanul-asror” poemasi o`zbek tiliga erkin tarjima qilishdi. Sayfi Saroyi esa Sa`diyning “Guliston”ini o`zbekchalashtirish bilan bu boradagi muvaffaqiyatlarni kuchaytirdi, to`ldirdi. Aytish kerakki, fors-tojik tili ma`lum davrlarda o`zbek adabiyoti uchun vositachi funksiyasini ham ado etdi. Arab, hind va boshqa xalqlarning adabiyotidan qilingan tarjimalar o`zbek kitobxoniga, til bilmaydigan ziyolilarga fors-tojik tili orqali ma`lum bo`ldi. XV asrning ikkinchi yarmida ham tarjima adabiyoti sohasida birmuncha ishlar qilindi. Alisher Navoiy tarjimaga qo`l urish bilan, birinchidan, o`z ijodiy ufq va imkoniyatlarini kengaytirgan bo`lsa, ikkinchidan, Sayfi Saroyi, Qutb Xorazmiy hamda Haydar Xorazmiylar tomonidan boshlangan qutlug` an`anani davom ettirdi. U Abdurahmon Jomiyning “Nafahotul-uns”, “Chihil hadis” singari asarlarini yangi g`oya va mazmun, behisob yangi

materiallar bilan boyitilgan holda o`zbekchalashtirdi, turkigo`ylarni bu bebaho xazinadan xabardor qildi. XV asrning ikkinchi yarmiga qadar paydo bo`lgan tarjima asarlari tarixiga nazar soladigan bo`lsak, ma`lum adabiy faktlar bu boradagi faoliyatning, asosan, bir taraflama davom qilganligini ko`rsatadi. Hatto XV asrning birinchi yarmi adabiyoti xususida ham ana shu gapni aytish mumkin. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib esa o`zbek tilidagi adabiyotning mislsiz taraqqiyoti, xususan, ulug` o`zbek shoiri Alisher Navoiyning o`lmas asarlari tarjimachilik bobida hukmron bo`lib kelgan manzarani birmuncha o`zgartirdi. Fors- tojik tilidagi adabiyot vakillarining o`zbek tilidagi badiiy so`z san`ati obidalariga bo`lgan ishtiyoqini oshirdi. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Alisher Navoiy, Amir Shayxim Suxayliy asarlariga e`tibor kuchaydi, javobiyalar aytish an`anasi boshlandi. XVI asrning birinchi choragidan boshlab esa o`zbek tilidagi adabiyot namunalaridan turk (o`zbek) tilini bilmaydigan forsigo`ylarni bahramand qilish yo`lida anchagina xayrli ishlar bajarildi. Faqatgina 1522-23 yillarda Alisher Navoiy “Majolisun-nafois” asarining Faxriy Hirotiy va Muhammad Hakimshoh Qazviniylar tomonidan fors tiliga o`girilishi, oradan sal o`tmay, Zahiriddin Muhammad Bobir “Bobirnomasi”ning shu tilga tarjima qilinishi g`oyat muhim faktidir. Ayni shu faktlar fors- tojik hamda o`zbek adabiy aloqalari tarixida, aniqrog`i, tarjimachilik sohasida burilish nuqtasi bo`ldi.

Zullisonaynlik – O`rta Osiyoning turkigo`y va forsigo`y aholisi uchun yangi voqea emas. Uning paydo bo`lish kurtaklari uzoq tarixdan boshlandi. Zullisonaynlik va uning paydo bo`lish faktorlari haqida mulohaza yuritgan taniqli sovet adibi Chingiz Aytmatov g`oyat e`tiborli fikrlarni o`rtaga tashlaydi. “Bir-biriga yaqin sohalar qovushgan joyda, -deb yozadi Ch.Aytmatov tanqidchi V. Levchenko bilan qilgan suhbatida, -juda qiziq hodisalar ro`y beradi. Ikki madaniyat qovushgan joyda zullisonayn yozuvchilar paydo bo`ladilar, ular ikki tilni birday egallagani holda ikki tilda ijod qiladilar”. Darhaqiqat, rus va qirg`iz adabiyotlari irmog`ining yagona oqimga birlashuvi – Chingiz Aytmatovday rus va qirg`iz tillarida asarlar yaratuvchi buyuk iste`dod sohibini, zullisonayn so`z san`atkorini tarbiyalab voyaga etkazdi. Chingiz Aytmatov o`zining shu problemaga

doir fikrini davom ettirar ekan, ikki xalq madaniyatidan ta`lim olish ba`zan kutilmagan va e`tiborga sazovor adabiy hodisalarning – milliy adabiyot vakillarining faqat rus tilida yozishi kabi holatning tug`ilishiga sabab bo`lishini ham qayd etadi. Adib aytgan xulosasi tasdig`i uchun qozoq shoiri Oljas Sulaymonov ijodini misol sifatida ko`rsatadi. “To`g`ri, - ta`kidlaydi Ch.Aytmatov o`sha suhbatda, - agar Oljas Sulaymonov faqat rus tilida yozmasdan qozoq adabiy tilida ham ijod qilsa, bu yanada qiziq va diqqatga molik voqea bo`laridi”⁵⁸. Lenin mukofoti laureati Chingiz Aytmatovning bu olijanob etyudlari ulug` o`zbek shoiri Alisher Navoiyning XV asrning ikkinchi yarmida zullisonaynlik qobiliyatiga ega bo`lgan shoirlar haqida aytgan mana bu fikrlarini eslatadi. “Va agar ikkala til bila aytur qobiliyatlari bo`lsa,-yozadi Alisher Navoiy “Muhokamatul-lug`atayn” asarida, -o`z tillari bila ko`proq aytsalar erdi”⁵⁹. bunday noyob qarashlar o`z milliy zaminida yuksak insoniy va internasional g`oyalarni qorishiq holda davom ettira olgan, o`zligini unutmay, o`zgalar dardiga sherik bo`lgan, ularning baxti uchun kurashgan buyuk iste`dod sohiblaridangina chiqadi. Alisher Navoiy va Chingiz Aytmatovlar esa shubhasiz, o`shanday kamyob baxtga muyassar bo`lgan etuk so`z san`atkorlaridirlar.

Dastlab tojiku o`zbek adabiyotlarining bu boradagi hamkorligi ikki til so`zlari qorishmasidan iborat – shiru shakar satrlar bitishdan boshlandi. So`ngra mulamma yaratish an`anasi, uning takomili sifatida turk-o`zbek, fors-tojik tillarida asarlar yaratishdan iborat zullisonaynlik tug`ildi va XV asrda, xususan, uning ikkinchi yarmida o`z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko`tarildi.

Darhaqiqat, bu davrga kelib o`nlab tab` sohiblari o`z asarlarini fors-tojik hamda o`zbek tillarida yozdilar. Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati zullisonaynlik bobida ham ibrat namunasi bo`lib xizmat qildi.

Alisher Navoiy o`zining o`zbek tilidagi asarlari bilan turk- o`zbek adabiyotini yuksak pog`onaga ko`tardi, nufuzini oshirdi. Shuningdek, u fors- tojik tilida ham qalam tebratdi, “Devoni Foniyy” ni tartib berdi. Shayxim Suxayliy, Mavlono Osafiy, Mavlono Shavqiy, Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobir, Davlatshoh, Samarqandiy, Kamoliddin Binoiy, Vosifiy singari shoirlar

Alisher Navoiy boshlagan zullisonaynlik an`anasini davom ettirdilar. Shu fazilat sohibi bo`lgan yana o`nlab ijodkorlar xususida o`sha davrda yaratilgan tazkira, tarixiy, ilmiy, badiiy, memuar asarlarda muhim va qiziqarli ma`lumotlar o`rtaga tashlanadi.

Tatabbu – Sharq xalqlari adabiyotida adabiy aloqa va o`zaro ta`sirning keng tarqalgan formalaridan biri. Tatabbu qatoriga “javob”, “muqobala”, “taqlid”, “nazira”, “istiqlol”, “tazmin”, “taxmis” singari terminlarni ham qo`shish mumkin. Chunki bular ham Sharq xalqlari adabiyotlari o`rtasida asrlar davomida amal qilib kelgan adabiy hamkorlik, o`zaro ta`sir, ustozu shogirdlikni ifodalovchi formalar – janrlar hisoblanadi. Mazkur terminlar o`rtasida ma`lum darajada yaqinlik, mushtaraklik alomatlari mavjud. Yoxud ularning barchasi ham bir adabiyot ma`lum bir ijodkorining o`zga adabiyot, uning taniqli arbobiga ta`sir o`tkazishi, uning ijod saboqlaridan ta`lim olishi, tradisiyalarini ijodiy davom ettirishi zaminida o`z so`zini aytishga intilishini bildiradi.

Ayni hodisa konkret olingan adabiyotning o`zida ham (ichki) sodir bo`lishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiydan keyin o`tgan barcha ijodkorlar uning maktabidan ta`lim olganlar, ta`sirlanganlar va ulug` o`zbek shoirini o`zlariga ustoz deb bilganlar. Shu ma`noda, ushbu terminlar mazmunida ma`lum darajada umumiylik ko`zga tashlanadi. O`z navbatida, bu terminlarning izoh va talqinida talaygina farqlar ham yo`q emas. Prof. A.A.Starikov haqqoniy qayd qilganidek, ularning barchasiga umumlashtirilgan holda payravlik, izdoshlik yoxud nazira shtampasini bosish yaramaydi. Aksincha, har bir adabiy hodisani o`z nomi bilan atash va baholash zarur. Buning uchun esa ta`sirlanuvchi ijodkorning ta`sir o`tkazuvchi so`z san`atkorining “qanaqa asariga qay darajada munosabatda bo`lganligi va nimaga erishgan” ligini e`tiborga olish, amalga oshirilgan ishning natijasiga qarab fikr yuritish lozim. Alisher Navoiyning yuqoridagi mulohazalari ana shu xususiyatga molikligi bilan qimmatlidir. Modomiki, o`tmishda yaratilgan adabiyotshunoslik asarlarida mazkur terminlar o`z o`rnida ishlatilgan ekan, bugun ham o`sha talablar doirasida fikr yuritmoq darkor. Buning uchun esa arab tilidan

olingan bu soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi, adabiy termin sifatidagi funksiyasi hisobga olinmogʻi lozim.

. Bu ikki terminning badiiy ijodda amal qilishida monandlik, shuningdek, farqli tomonlar bor. Tazmin va taxmisdagi umumiylik (shartli maʼnoda) “birovning maʼlum bir sheʼrining ayrim misralarini oʻz sheʼri ichiga kiritishi” da koʻrinadi. Darhaqiqat, har ikki adabiy hodisaning ham amal qilishida parcha koʻchirish asos vazifasini oʻtaydi. Shuningdek, oʻsha parchani tanlash, undagi fikrlarni rivojlantirish, badiiyat bobida bellashishga urinish – trdisiyasini davom ettirish, adabiy aloqa va oʻzaro taʼsir problemasiga kelib ulanadi. Tazminda ham, taxmisda ham oʻzga asardan olinadigan parchalar tanlanadi. Ammo oʻsha parchalarning hajmi bu ikki adabiy hodisada bir xil boʻlmaydi. Tazmin yoʻli bilan yaratiladigan asarlar tarkibidagi koʻchirmalar bir necha soʻz, misra yoxud baytdan iborat boʻlishi mumkin. Taxmisda esa bu miqdor muxammas bogʻlanayotgan gʻazalning baytlar miqdoriga uzviy bogʻliqdir. Masalan, Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli gʻazali etti bandli boʻlib, uning har bir bandida Alisher Navoiyning bir bayti kiritiladi. Aksariyat taxmislar uchun bu prinsip etakchidir.

Masalan, Shoislom Shomuhamedov Umar Xayyom ruboiylarining falsafiy mazmunini oʻzbekchada asliyatga muvofiq tarjima qila oldi, lekin ularning vaznini saqlab qolmadi – aruz tarjimada barmoqqa aylandi. Demak, bu tarjimalarni mazmun va shakl jihatidan asliyatga mos deb boʻlmaydi, ular faqat mazmun jihatdan muvofiq. Shuning uchun ham Gʻaybulla Salomov ularni Jamol Kamolning aruzda amalga oshirgan tarjimalari bilan qiyoslar ekan, keyingi tarjimalar avvalgisidan “musiqasi, jaranglashi, tarovati bilan farq” qilishi, binobarin, bu tarjimalarning qimmatini ularning “koʻproq sheʼriy maʼnoga ega” ligida ekanligini taʼkidlagan ediki, bu ayni estetik maʼno deganidir. Mazkur fikrlarning dalili sifatida Mirzo Kamol va Shoislom Shomuhamedov tarjimasidagi namunalarini koʻrib chiqaylik:

Har dida, ki ibrate nagirad koʻr ast,

Har nuql, ki lazzate nabaxshad shoʻr ast.

Raxte, ki tagʻyir napazirad – kafan ast,

On xona, ki tabdil nayobad – go`r ast!

Jamol Kamol tarjimasi:

Har ko`zi, agar olmasa ibrat, ko`rdir,

Har luqma, agar bermasa lazzat, sho`rdir.

Har to`n, agar o`zgarmasa, to`nmas, u – kafon,

Har xonaki, birdek turaversa, go`rdir.

Albatta, ruboiyning injiqliklari, nozikliklari bilan bir qatorda, o`z imkoniyatlari, qulayliklari ham bor. Chunonchi, bir necha vazn bir ruboiyda o`rin almashib kelishi mumkin. Hatto ham axram, ham axrab vaznlarida bitilgan ruboiylar mavjud. Bu mazmunga ta`sir qilmaydigan emas, balki bir musiqiy ohang, bir she`riy ruh doirasida aylangani uchun ritmni ham aytarli o`zgartirmaydi. Bu imkoniyatdan unumli foydalangan Jamol Kamol tarjimalarida aksariyat ikki yoki uch vazn ishtirok etadi. Barmoq vazni haqida esa bunday deb bo`lmaydi: har hijonning kamayishi yo ko`payishi bilan vazn ham o`zgaradi. Jumladan, Bedil ruboiysi uch vazn – hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall (1-2-misralar), hazaji musammani axrabi makfufi ahtam (3-misra) va hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall vaznlarida yozilgan bo`lib, Jamol Kamol uni hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar (1-2- va 4- misralar) hamda hazaji musammani axrabi makfufi majbub (3-misra) vaznlari orqali o`zbekchalashtirgan va shunga muvofiq ravishda tarjimada ham misra boshida “har” qo`shimchasini qo`llash orqali takror san`atini hosil qilgan. Asliyatning esa u faqat dastlabki ikki misrasidagina mavjud. Uchinchidan, tarjimaning Birinchi qo`shmisrasida tarse` san`ati ham bir – ikkinchi misradagi qator so`zlar Birinchi misradagi so`zlarga bir qadar mos kelgan. To`rtinchidan, qofiyadan keyin takrorlanuvchi “-dir” qo`shimchasi ham ritmni kuchaytirish, ta`sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Shoislom Shomuhamedovning o`n bir hijoli barmoq vaznida amalga oshirgan tarjimasida esa ruboiyning badiiyatini kuchaytiradigan mazkur vositalarning birortasi ham yo`q:

Hayotdan olmasa ibrat u ko`z ko`r,

Asalda bo`lmasa shirinlik u sho`r.

O`zgarib turmagan libos kafandir,

O`zgarish bilmagan xona – qaro go`r.

Jaloliddin Rumiylar asarlari, xususan, “Masnaviyi ma`naviy”si asrlar davomida o`zbek xalqi orasida ham mashhur bo`lib, yurtimizda masnaviyxonlik keng tarqalgan. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida “Masnaviyi ma`naviy”ning “yuzga yaqin qo`lyozma va bosma nusxalarining mavjudligi” buning isbotidir. Lekin din, unga qo`shib tasavvuf ham qoralangan Sho`ro davrida – salkam bir asr mobaynida buyuk islomiy adabiyot va mutasavvif shoirlar ijodidan, jumladan, Mavlono Jaloliddin Rumiylar nomi bilan bog`liq buyuk ma`naviyat daryosidan, yuksak badiiyat dunyosidan bebahra yashadik. Bizda Rumiylar merosini o`rganish va targ`ib etish o`tgan asr saksoninchi yillarining o`rtalarida jamiyatimizda vujudga kelgan erkinlik epkinlari tufayli taniqli sharqshunos olim va adib Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiylar” deb nomlangan tarixiy – biografik romanini tarjima qilish bilan boshlandi. Istiqloq yillarida Jamol Kamol shoir ruboiylari va “Masnaviyi ma`naviy” rivoyat va hikoyatlaridan namunalar tarjima qilib nashr ettirdi. Nihoyat, uning olti kitobdan iborat “Masnaviyi ma`naviy”sini to`la tarjima qilishi adabiy – ma`naviy hayotimizda unutilmas voqea bo`ldi. “Masnaviyi ma`naviy” Jamol Kamol tarjimonlik faoliyatining cho`qqisigina emas, ayni paytda, o`zbek tarjima adabiyotining ulkan yutug`i hamdir. Bu muazzam asarning faqatgina ta`rifini eshitib kelgan o`zbek o`quvchilari uni ona tillarida o`qib, buyuk ma`naviyat ummonidan bahramand bo`lish baxtiga erishdilar.

Jamol Kamol mashhur mutasavvif shoir va avliyo Fariduddin Attorning uch muazzam asari – “Mantiq ut – tayr”, “Ilohiynoma”, “Asrornoma”larni o`z aruziy vaznida asliyatga muvofiq tarjima qilib, Attor asarlari tarjimasini boshlab beradi, o`zbek o`quvchilarini ilk bor bu buyuk ilohiy ishq ma`rifat kuychisi asarlari bilan tanishtirdi, Attor degan beqiyos olamga yo`l ochdi. Bunday deyishimizning sababi sho`ro davrida Attor mistik shoir sifatida qoralanib, uning bir misra she`ri ham tarjima qilinmagan, u haqida biror – bir tadqiqot ham olib borilmagan. Ayni jihatdan Jamol Kamol Attorning o`zbek adabiyotidagi kashshofi bo`ldi, desak,

mubolag`a qilmagan bo`lamiz. Chunki biz Attor degan zabardast bir so`z san`atkori borligini, o`zidan keyingi Sharq, jumladan, o`zbek adabiyotiga kuchli ta`sir o`tkazganini, Alisher Navoiyning she`riyatdagi ustozlaridan biri, ma`naviy rahnamolari qatoridagi buyuk zot ekanligini bilsak-da, ko`plab mumtoz shoirlarimizga ilhom bergan adabiy sarchashmalardan biridan mutlavo bexabar edik. Aytaylik, “Lison ut-tayr”ni mutolaa qilar, tadqiq etar edigu uning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan “Mantiq ut- tayr”ni bilmasdik. Adabiyotimizdagi ana shu ulkan bo`shliqni Jamol Kamol to`ldirdi.[23.45.]

Attor asarlarini ham shoir – tarjimon qiyomiga etkazib tarjima qilgan. “Attor so`zlarining ruhi, fikrlarining yolqini, tasvirdagi ta`sirchanlik o`zbekchada ham susaymagan”. Jumladan, “Mantiq ut-tayr” ramali musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yozilgan bo`lib, tarjimon uni ayni vaznning o`zi bilan tarjima qilish orqali tarjimada shakl va mazmun birligini saqlay olgan. Chunonchi:

To chu bar tu aybi tu oyad garon,

Nabudat parvoi aybi digaron.

Ko`z ochib, ko`rsayding aybingni agar,

O`zgalar aybiga solmasding nazar.

Tarjimada birgina “garon” so`zining ma`nosi aks etmagan (bu so`zning ma`no doirasi keng bo`lib, bu erda u ko`p, katta, ziyoda, farovon ma`nolarida kelgan). Lekin u tarjimaning sifatiga deyarli daxl qilmagan. Chunki “aybing ko`pligini ko`rsayding” bilan “aybingni ko`rsayding” jumalari o`rtasida keskin atfovut yo`q. Sababi bu erda ko`zda tutilgan asosiy maqsad insonning o`z aybini ko`rishi bo`lib, ko`p, ortiq ma`nolari bor – yo`g`i fikrni bir oz kuchaytirishga xizmat qilayapti, xolos. Ya`ni birgina so`zning tarjimada aks etmagani bilan uning qimmatini zarracha pasaymagan.

I.3 Tarjima turlari va tasnifi

Nobadiiy tarjima. Ma'lumki, har qanday til yozma va og'zaki shaklga ega bo'ladi. Asliyat va tarjima tillari nutqning qaysi shaklida ishlatilishiga ko'ra tarjimaning quyidagi asosiy turlari mavjud:

Yozma-yozma tarjima yoki yozma matnni yozma tarjima qilish: asliyat tili ham, tarjima tili ham yozma shaklda ishlatiladi. Tarjimaning bu turi eng ko'p qo'llaniladi va tarjima qilinayotgan matn gazeta va jurnal, hujjat va ilmiy matn, ommaviy-siyosiy adabiyot va badiiy adabiyotga mansub bo'ladi.

Og'zaki-og'zaki tarjima yoki og'zaki matnning og'zaki tarjimasi. Asliyat tili ham, tarjima tili ham og'zaki shaklda ishlatiladi. Tarjimaning bu turi ikki xil bo'ladi: ketma-ket va sinxron tarjima. Ketma-ket tarjimada asliyatdagi matn oldindan to'la yoki qism-qismga bo'lingan holda beriladi va tarjima qilinadi. Sinxron tarjimada esa asliyat matni nutq jarayonida tarjima qilinadi. Og'zaki tarjima tarjimondan yuksak mahorat va bilim tarjimasiga ulgurishi kerak bo'ladi. Qolaversa, psixologik xususiyatga ega bo'lgan qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun, tarjimon kuchli xotiraga ega bo'lishi kerak va tarjimon bir paytda eshitish va gapirish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. [17.5.]

Yozma-og'zaki tarjima yoki yozma matnning og'zaki tarjimasi: asliyat tili yozma shaklda, tarjima tili esa og'zaki shaklda ishlatiladi. Bu tur ham ikkiga bo'linadi: bunda asl nusxadagi yozma matn o'qib turgan qolda tarjima qilinadi yoki matnni to'laligicha o'qib, keyin tarjima qilish talab qilinadi (Bayon diktant).

Og'zaki-yozma tarjima yoki og'zaki matnning yozma tarjimasi: bu turda asliyat tili og'zaki shaklda ishlatiladi, tarjima tili esa yozma shaklda bo'ladi. Tarjimaning bu turi amaliyotda kam ishlatiladi. Odatda bu tur amaliyotda xorijiy til o'rganishda diktant –tarjima deb ataladi va bunda og'zaki matn (asliyat) yozma tarjimini amalga oshirish imkoniyatini beradigan tarzda sekinlashtirilgan tezlik bilan o'qiladi. Diktant-tarjima tarjimonlar amaliy faoliyatida ham uchrab turadi.

Tarjima uslublari: tarjimaviy transformatsiyalarning alohida turi tarjima uslublari bo'lib, ular yordamida asliyat tili matnidagi ham leksik, ham sintaktik strukturalar o'zgartiriladi. Tarjimada eng ko'p qo'llaniladigan leksik-grammatik

transformatsiyalar jumlasiga antonimli tarjima, tavsifli tarjima va kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) kiradi.

Antonimli tarjima – asliyatdagi gapning inkor yoki so'roq shaklini bo'lishli shakl bilan yoki, aksincha, bo'lishli shakldagi gapni inkor yoki so'roq shakl bilan almashtirishdir. Bunday o'zgartirish, odatda, kesimning leksik-semantik tarkibi bilan boqliq. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganda ko'pincha inkor shakldagi kesim bo'lishli shaklga va ba'zan esa, aksincha, bo'lishli shakldagi kesim bo'lishsiz shaklga o'zgartiriladi.

Nobody came.- Hech kim kelmadi.

No kidding! I appreciate it. I really do.- Rost so'zim, men buni juda ham qadriga etaman.

It was only me that was in the room.- Xonada mendan boshqa hech kim yo'q edi.

Nothing changed.- Hech narsa o'zgarmadi.

Taking offence at me, he didn't say a word all the way back home.-U mendan xafa bo'lib qoldi va shuning uchun uyga qaytib kelgunimizgacha lom-mim demay keldi.

Don't count your chickens before they are hatched.- Jo'jani kuzda sanaydi.

Hold cheap.-Narx oshirilmasin.

Keep one's pecker.- Ruhdan tushmang.

Remember to buy the book.-Bu kitobni sotib olish esingizdan chiqmasin.

Inglizcha-O'zbekcha tarjimalarda asliyat tilidagi inkor yuklama inkor prefiksli so'z bilan birga kelganida antonimli tarjima va leksik almashtirish birga ishlatiladi.

She is not unworthy of your attention.-U sizning e'tiboringizga loyiq.

Tavsifli tarjima [18.9.]- leksik–grammatik transformatsiya bo'lib, unda asliyat tilidagi leksik birlik tarjima tilida uning ma'nosini izohlab beradigan so'z birikmasi bilan almashtiriladi. Tavsifli tarjima ko'p so'zlilik xususiyatiga ega: *conservationist – tabiatni muhofaza qilish uchun kurashuvchi shaxs; whistle-stop speech – nomzodning saylov oldi agitatsiyasi davridagi chiqishi; Shariat - Shari'ah (also Sha-riah) – the system of religious laws that Muslims follow; halal - Halal 1. (of meat) from an animal that has been slaughtered according to Muslim law; halal money; halal meat; a halal butcher - one who sells halal meat; 2. any*

thing that is obtained according to Muslim law; halal teacher or student – one who doesn't get money or other things from students one who doesn't give money to a teacher; U halol odam – He is a halal (one who earns his living honestly) person. Halol pul – halal money (money earned honestly); Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich - If you get your food honestly you may enjoy it anywhere. Halol mehnat qilmoq – to work honestly; 3. lawful, conjugal rights. Musulmonlarda kuyov (1. son-in-law; 2. bride-groom) va kelin (1.daughter-in-law; bride) faqatgina nikohdan so'ng bir-biriga halol bo'ladi. har bir kishi halol yashashi kerak. Halol odam behavotir yashaydi. harom- Haram – any thing obtained according not to Muslim or Christian laws; haram teacher or student – one who gets money or other things from a student or one who gives money or other things to a teacher; Pora olish islomda ham, xristianlarda ham harom qilingan; harom ovqat; Pora bilan topilgan pul islomda ham, xristianlikda ham harom qisoblanadi; haromdan hazar qilishi kerak; harom o'qituvchi – ustoz (tutor) emas.

Tarjimada ekvivalentlikka erishishning usullaridan yana biri tarjimaviy transformatsiyaning kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) deb nomlangan turidir. Bu usul asliyat matnidagi ayrim elementlarni u yoki bu sababga ko'ra tarjima tilida yo'qligi sababli tarjima tili vositalari bilan ifodalashni imkoniyati bo'lmagan hollarda ishlatiladi. Bunday hollarda asliyat tilidagi u yoki bu birlik tarjima qilinmaganligi yoki tarjima tilida o'z ifodasini to'la topmaganligi sababli yuzaga keladigan semantik yo'qotishni o'rnini to'ldirish (kompensatsiya qilish) uchun tarjimon, aynan ana shu ma'lumotni, qandaydir boshqa bir vositani qo'llaydi. Shuni ham aytish joizki, bu kompensatsiya asliyat matni talab qilgan joyning o'zida amalga oshirilishi shart emas.

"Why don't you write a good thrilling detective story?" she asked. "Me?" exclaimed Mrs. Albert Forrester, for the first time in her life regardless of grammar. (S. Maugham, The Creative Impulse)

- Nega siz maroqli va yoqimli yaxshi bir detektiv roman yozmaysiz?– Nima-nima?, - deb missis Forrester hayotida birinchi bor grammatikaga amal qilmay qiyqirib yubordi.

Kompensatsiya asliyatdagi til birligida ifodalangan pragmatik (pragmatika – har handay til birligining, ya'ni u yoki bu so'z, so'z birikmasi va gapning kontekst talab qilgan holatdagi shaklini ishlatilishidir) ma'noni tarjima tilida asliymonand tarzda saqlab qolishni ta'minlaydi. Ammo, yuqoridagi inglizcha gapning ruscha tarjimasida tarjimon M. Lorie pragmatik ma'noni saqlab qololmagan.

Tarjimadagi transformatsiyalar. [19.67.]Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tillararo muloqotning alohida turi bo'lgan tarjima turli tillar matnlarining shaklan va mazmunan ekvivalentligini taqazo etadi. Asliyat va tarjima matnlari shakl va mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti sifatida tan olishni talab qiladi. Ekvivalentlik tarjimaga “bir tildagi matnni o'zga tilda shu darajadagi matn bilan almashtirish” deb berilgan ta'rifga mos keladi. Ushbu holda “ekvivalentlik” tushunchasi tarjimaning sifatlik, yuqori bahoga loyqlik xususiyatini anglatadi. Demak, ekvivalent tarjima “yaxshi”, “to'g'ri” tarjima sanalgani holda, ekvivalent bo'lmagan tarjimoni to'g'ri (adekvat, to'laqonli) tarjima deb bo'lmaydi. Shunday qilib, ekvivalent tarjima asliyat mazmunini O'zga tilga vazifaviy-uslubiy-to'kis talqin etishdan iborat jarayondir. Tarjimaviy ekvivalentlikka (“tarjimaning asliymonandligi”) erishishda tarjimondan ikki tildagi formal va semantik farqlarga qaramasdan bir qator va sifat jihatidan xilma-xil bo'lgan tarjimaviy transformatsiyalar (o'zgartirish, bir shakldan ikkinchi shaklga aylantirish) yaratishni uddalash talab qilinadi, toki tarjima matnida asliyatdagi matnda ifodalangan barcha ma'lumot tarjima tili qonuniyatlariga qat'iy rioya qilingan holda maksimal darajada to'laqonli ifodalansin. Lingvistik tarjimashunoslikda tarjima jarayonida amalga oshiriladigan transformatsiyalarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

I. O'rin almashtirish;

II. Almashtirish;

III. Qo'shish;

IV. Tushurib qoldirish. Ammo, transformatsiyalarni bunday turlarga bo'linishi ma'lum darajada taxminiy va shartli ekanligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Birinchidan, ko'pchilik qollarda u yoki bu transformatsiyani aynan bir tur deb

talqin qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidan rus tiliga tarjima qilishda bog'lovchili boqlangan qo'shma gaplarni bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap bilan almashtirishni ham almashtirish, ham tushurib qoldirish deb ta'riflash mumkin. Ikkinchidan, eng asosiysi shuki, tarjimaviy transformatsiyalarning yuqorida keltirilgan to'rt turi amaliyotda "sof holda" kamdan-kam hollarda uchraydi, ya'ni ular, odatda, bir-biri bilan birgalikda murakkab (kompleks) transformatsiyalarni tashkil etadi.

I. O'rin almashtirish: O'rin almashtirish transformatsiyasi tarjima matnidagi til birliklarini asliyatdagiga qiyoslaganda joylanish tartibini o'zgarishidir. Transformatsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan til birliklari odatda matn tarkibidagi so'zlar, so'z birikmalari, ergash gapli qo'shma gapning qismlari (clauses) va sodda gaplardir. Tarjima jarayonida ko'p uchraydigan o'zgarish – gapning strukturasiidagi so'z tartibi va so'z birikmalaridir. Masalan, *a book of my sister – opanning kitobi*. Yuqorida aytib o'tganimizdek, keltirilgan so'z birikmasida tarjimaviy transformatsiyaning ham o'rin almashtirish, ham tushurib qoldirish (my) turlari ishlatilayapti. Ma'lumki, ingliz va o'zbek tillarida so'z tartibi bir xil emas va bu narsa tarjimada o'z aksini topishi muqarrardir. Ingliz tilida so'z tartibi turg'un (qat'iy), O'zbek tilida esa so'z tartibi erkindir. O'rin almashtirish tarjimaviy transformatsiyada ko'p qo'llaniladi, ammo, u turli xildagi leksik va grammatik transformatsiyalar bilan birga qo'shilib keladi.

Almashtirish. Almashtirish tarjimaviy transformatsiyaning eng keng tarqalgan va rang-barang turidir. Tarjima jarayonida grammatik birliklar ham (so'z formalari, so'z turkumlari, gap bo'laklari, sintaktik aloqa turlari), leksik birliklar ham almashtirilishi mumkin. Shuning uchun ham tarjimashunoslikda leksik va grammatik almashtirishlar farqlanadi. Bundan tashhari, butun bir konstruktsiyalar ham almashtirilishi mumkin. Bunday almashtirish kompleks leksiko-grammatik almashtirish deyiladi.

Leksik almashtirishda asliyat tilidagi ayrim leksik birliklar (so'zlar va qat'iy birikmalar) ularning lug'aviy ekvivalentlari bo'lmagan tarjima tili leksik birliklari bilan almashtiriladi, ya'ni ular alohida olinganda boshqa lug'aviy ma'noga ega

bo'ladilar. Ko'pincha uchta holat kuzatiladi: konkretlashtirish, umumlashtirish va sabab-oqibat munosabatiga asoslangan almashtirish (oqibatni sabab bilan va sababni oqibat bilan almashtirish).

a) konkretlashtirish: Ma'noni konkretlashtirish uslubi shundan iboratki, unda tarjimon asliyatdagi so'zning tarjimasi uchun tarjima tilida konkretroq ma'noli so'zni tanlaydi. Masalan, *“My mother had left her chair in agitation and gone behind it in the corner”* gapida *“to leave”* va *“to go”* fe'llari O'zbek tiliga *“qoldirmoq”* va *“bormoq”* fe'llari bilan tarjima qilinmaydi. Tarjimaviy ekvivalentlikka erishish keltirilgan fe'llarni konkretlashtirilishini talab qiladi: *“Onam qayajondan irg'ib turib, burchakda qotganicha turib qoldi.”*

Ingliz tilidagi quyidagi gaplarni O'zbek tiliga tarjimasida *“say”* fe'li *“gapirmoq”*, *“aytmoq”* fe'llari bilan tarjima qilinsa, ekvivalent tarjimaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun, bu fe'lning ham ma'nosi konkretlashtirilishi maqsadga muvofiq.

- *“So what?” I said.*

- *Xo'sh, nima gap o'zi?, - so'radim men.*

- *“Hello”, I said when somebody answered phone at last.*

- *Labbay! deb qichqirdim men, va nihoyat kimdir telefonga kelganida. Becky had said that she was in bed and ill.-Bekki u kasal bo'lib yotibdi deb yozibdi.*

Shunday qilib, konkretlashtirishda asliyatdagi keng lug'aviy ma'noga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalar tarjima tilidagi tor ma'noli so'z yoki so'z birikmasi bilan almashtiriladi. Konkretlashtirish lisoniy va kontekstual (nutqiy) bo'lishi mumkin. Lisoniy konkretlashtirishda keng ma'noli so'zni tor ma'noli so'z bilan almashtirilishi ikki til qurilishidagi tafovutlar tufayli yuzaga keladi. Bunda tarjima tilida aslyat tilidagidek keng ma'noga ega bo'lgan leksik birlikni mavjud emasligi, ularning stilistik xususiyatlaridagi farqlar yoki grammatik tartib talabiga ko'ra gapda sintaktik transformatsiyaning zarurligi, jumladan, ot kesimni fe'l kesim bilan almashtirilishiga ehtiyojning yuzaga kelishi sabab bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi mavqum ma'noga ega bo'lgan thing oti konkretlashtirish usuli bilan tarjima qilinadi: narsa, predmet, ish, fakt, voqea, holat, asar, mohiyat va boshqalar.

b) umumlashtirish: Umumlashtirish konkretlashtirishning aksi bo'lib, bunda asliyat tilidagi tor ma'noga ega bo'lgan til birligi tarjima tilidagi anchagina keng ma'noli birlik bilan almashtiriladi.

He comes over and visits me practically every weekend.

U uzoqda tursada, har hafta meni yo'qlab turadi.

v) sabab-oqibat munosabatiga asoslangan almashtirish: Ko'pincha tarjima jarayonida tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatiga asoslangan, leksik almashtirishlar uchraydi. Bunda, asliyatdagi so'z yoki so'z birikmasi tarjima tilida mantiqan asliyat tilidagi tarjima qilinayotgan birlik ifodalaydigan harakat yoki holatning sababini anglatadigan so'z yoki so'z birikmasi bilan almashtirilishi mumkin.

He always made you say everything twice.-U har doim qaytadan so'rardi. (Aytgan gapiningizni takrorlashga majbur bo'ldingiz, chunki u qaytadan so'radi.)

Ayrim hollarda sababni oqibat bilan almashtirish holatlari ham uchraydi:

- *“Have a seat there, boy”, old Spencer said. He meant the bed.*

- *“Bolakay, ana u erga o'tiraqol”, -dedi keksa Spenser. U krovatni ko'rsatdi. (Krovatni nazarda tutganligi tufayli, uni ko'rsatdi.)*

III. Qo'shish: Tarjima matnida leksik qo'shishlarga zaruriyat tug'ilishining sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ulardan biri asliyat tilidagi so'z birikmasi semantik komponentlarining “shaklan ifodalanmasligi”dir. Bu hodisa ingliz tilidagi so'z birikmalari uchun nihoyatda xos bo'lib, uni gapning ichki strukturasi mujassam bo'lgan u yoki bu semantik elementning “ellips”ga uchrashi yoki “tushurib qoldirilishi” bilan izoqlash mumkin.

“Her English is not very good”, I said. “I'm afraid my French is awful.” - U ingliz tilini yaxshi bilmaydi, dedim men. – Frantsuz tilini unchalik yaxshi gapiraolmayman deb qo'rhaman.

Tarjima jarayonidagi qo'shish uslubi boshqa sabablarga ko'ra ham yuz berishi mumkin. Ulardan biri tarjimada gap strukturasi sintaktik jihatdan o'zgartirish bo'lib, unda gapga u yoki bu elementlarni kiritish talab qilinadi. Leksik qo'shishlarga yana shunday holatda zaruriyat paydo bo'ladiki, bunda asliyatda

grammatik vosita yordamida berilgan ma'noni tarjimadagi matnda leksik birlik bilan ifodalashga to'g'ri keladi.

And a third, Stephen said, there is who wants me for odd jobs.-Va yana biri, dedi Stiven, meni o'ziga yugurdak bo'lishimni xohlaydi.

IV. Tushurib qoldirish: Tushurib qoldirish qO'shish uslubini aksi bo'lib, tarjimada ko'pincha semantik jihatdan ortiqcha bo'lgan so'zlar tushurib qoldiriladi, ammo tarjimada asliyatdagi matn mazmuni ularning ishtirokisiz ham tushunarli bo'ladi. Boshqacha aytganda, har qanday til sistemasida ham, nutqiy ifodada ham semantik jihatdan ahamiyatsiz bo'lgan ortiqcha so'zlarni tarjima jarayonida tushurib qoldirish mumkin.

just and equitable treatment - adolatli munosabat;

The bold and courageous struggle of the working class and its Labourist Party carried the day.- Ishchilar sinfi va uning leyboristik partiyasining mardonavor kurashi muvaffaqiyat bilan tamomlandi.

IKKINCHI BOB. INGLIZ ADABIYOTIDA TEODOR DRAYZERNING ADABIY MEROSINI O'RGANISH.

2.1. TEODOR DRAYZERNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI.

Drayzer ijodi XX asrning birinchi yarmi Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning cho'qqisidir. Drayzer A.Q.SH hayotidagi fojaviylikni ko'rsata olgan yirik san'atkor bo'lib, uning ijodi, ayniqsa, Oktabr revalyutsiyasining jahonshumul g'alabasi ta'siri ostida ravnaq topdi, u Amerika qit'asida sotsialistik realizm adabiyotiga asos solgan yirik yozuvchi va jamoat arbobi sifatida taniladi.¹ Jahon adabiyotining taniqli namoyondasi, serqirra ijodkor, journalist, naturalizm maktabining yorqin vakili va Amerika adabiyotining so'nmas yulduzi Teodor Drayzer zamonasining kuchli yozuvchilaridan biri bo'lgan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida qalam tebratgan bu yozuvchi o'sha davr muhitini yaxshi ochib bergan, obrazlarini yaratishda jamiyatning ishchilar sinfiga ko'proq e'tibor qaratgan. Uning eng asosiy tayanchi o'zining boshidan kechirgan murakkab va qiyinchiliklarga to'la bo'lgan hayati va ijodidir. Teodor Drayzer-Teodor Albert German Amerika yozuvchisi va jamoat arbobi "Chikago deyli nyuvs" (Chicago daily news) gazetasi muhariri (1892).[14. 67.] Teodor Drayzer Indiana shtatining Terre-Xot qishlog'ida serfarzand, shuning barobarida qashshoq oilada dunyoga keladi. U Sara va Jon Drayzerning o'n ikkinchi bolasi edi. Teodorning to'g'ich akasi Paul Drayzer(1859-1906) zamonasining mashhur kompozitorlaridan biri bo'lgan. 1844-yil o'z ona yurtini tark etgan oila boshlig'i Jon Drayzer Germaniyaning Mayyen shahri fuqarosi bo'lgan. Keyinchalik esa Angliya o'rmonlarida qisqa vaqt davomida daraxt kesuvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi. So'ngra O'rta G'arbga ya'ni yurtdoshlari makon qurgan zaminga ko'chib o'tadi. Biroz muddatdan so'ng Ogayyo shtatiga boradi. U yerda o'z baxtini uchratadi, ammo sevgilisi Saraga yetishish uchun ko'pgina to'siqlarni yengib o'tish kerak edi. Saraning oilasi o'ta dindor oila edi, katolik mazhabining har bir qonun-qoidasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashilardi. Jon esa provaslav mazhabida edi, shuning uchun Mennotilar oilasi bu yigitni qabul qila olmasdilar. Ammo har yerda muhabbat g'olib deganlaridek, bu juftlik bir-biridan ayrilmadi. Aksincha ular uchun yagona yo'l bu diyorni

birgalikda tark etish edi va bu ishni ular uddalay oldilar. 1851-yilda bu juftlik o'rtasida nikoh o'qildi, turmush o'rtog'i o'zidan o'n ikki yosh katta o'n yeti yashar kelinchakning quvonchi cheksiz edi. Teodorning bolalik yillari haqida yozgan estaliklarida onasining bu baxtli lahzalarni tez-tez eslashini alohida ta'kidlab o'tgan. Sara va Jon avval Indiana shtatining Fortvoyne shahriga so'ng Terra-Xotga ko'chib kelishadi. Bu shaharda otasi yof'och biznesi bilan shug'ullanadi, tez orada uning bu biznesi gullab yashnaydi va Sullivendan o'ziga yer sotib oladi. Ammo 1869-yil omad bu oiladan yuz o'giradi, taqdir o'z hukmini o'tkazadi, ularning yeriga o't ketadi va shundan so'ng bu oila o'zini tiklay olmaydi. Jon bir so'm pulsiz va ishsiz bo'lib qoladi. 1870-yil boshida mamlakatda hukm surayotgan iqtisodiy tanglik va ishsizlik bu oila ahvolini yanada chigallashtirdi va bu hol uzoq vaqtga cho'ziladi. Baxtiqaro bolakay Teodorning bolalik yillari ayni shu paytga to'g'ri kelib qolgandi. Drayzerning bolaligi ochlikda va muhtojlikda o'tdi. Uning ilk xotiralari o'sha davrning o'g'ir damlari, oilaning iqtisodiy taqchilligi, otasining ishsizlik paytlari bilan qamrab olingandi. Teodorning ilk o'smirlik yillari Indiana shtatining beshta shahrida (Chikagoda ham bir necha oy istiqomat qilishgan) kechgan. Albatta hayotidagi bu o'zgarishlar Teodorning ruhiyatiga, ilm olishiga, ijodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Drayzer o'qish u yoqda tursin, kun ko'rishga ham qiynalib, pul topish uchun ertadan kechgacha qiynalib tinimsiz mehnat qilar edi.¹ O'sha paytda Amerika adabiyoti katoliklar ta'siri ostida edi va faqat ko'proq e'tibor nemis adabiyotiga qaratilgan edi va bu Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Teodor o'zining adabiy faoliyati davomida nemis-amerika klassik adabiyotining haqiqiy hayotiy rasmini chizib bera olgan va bu o'z asarlarida aksini topdi. O'sha paytdagi og'ir hayot, nochorlik, iqtisodiy yetishmovchilik, moddiy ahvolning tangligi, uning adabiyotga bo'lgan mehrini, o'qish otashini zarracha pasaytirmadi. Oilani tebratish uchun bechora ona odamlarning kirini yuvar va Teodor unga tayyorgina dastyor edi, ona-bola kunduzlari qora mehnat qilishar, holdan toygan Teodor esa kechqurunlari kitob varaqlashga ham vaqt ajratar edi. Uning bolalk xotiralari haqida yozgan estaliklarida ularning bu ahvolga tushishlariga, qiyinchilik bilan umrguzaronlik qilganliklariga ko'pincha otasini

aybdor deb hisoblardi. Chunki otasi o'sha paytda ruhoniy bo'lib olishga ulgurgan va u bolalariga, yaqinlariga haqiqiy baxt bu foni dunyoni tark etgandan so'ng, Olloh huzurida bo'lishini uqtirishga harakat qilar edi. Uning o'zi bu ta'limotga qattiq ishonar va boshqalarning ham shunday bo'lishlariga da'vat etardi. U oila tebratishga harakat qilmas, oilasini qiyin moddiy ahvoldan olib chiqishga urinmasligi Teodorga og'ir botar edi va uning qalbini yaralardi. Teodor ham boshqa bolalar singari baxtli, quvonchli hayot tarzini o'tashni xohlar, bu dunyoga alamzadalik, xo'rlanish bilan emas, balki beg'ubor, yorqin ko'zlar bilan boqishni istar edi. Balki shuning uchun hamdir uning ko'pgina asarlarida bolalikning o'g'ir asoratlarini uchratish mumkindir. Uning bu alamzadaligi, hayotga bo'lgan nafrati, qayg'uga limmo-lim to'lgan bolaligi uning eng yaxshi asarlaridan biri "Jenni Gerxardt"da o'z aksini topadi. Bu asarida u o'z oilasini model qilib oladi. Misol uchun: Gerxardtlar oilasining Indiana shtatida yashashi, otasining kelgindi bo'lishi, ota va bola tushunmovchiligi, otasining bolalar oldida o'z avtoritetini yo'qotishi, otasining dinga mukkasidan ketishi va hokazolar. Drayzer bu modelni yana boshqa asarlarida kengaytirdi, masalan, "Amerika fojiasi" romanida ham xuddi shunday befarq ota (Eysa) obrazini ko'rishimiz mumkin. Endi u nafaqat o'z oilasining balki, boshqa bir oddiy Amerika oilasining portretini chizdi. Onasining vafotidan so'ng Drayzer Chikagoga borib dastavval restoranda idish-tovoq yuvuvchi, yer o'lchovchi, usta tekshiruvchi, tovar stantsiyasida nazoratchi bo'lib ishlaydi, kir yuvish shaxobchasida mexaniklik qiladi. Qo'yingki uning qilmagan ishi, ish qidirib kirmagan ko'chasi qolmagan edi. Maktabni bitirib, 1883-yil Indiana Universitetiga kirib, bir yil o'qib, uni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Chunki iqtisodiy ahvoli o'qishni davom ettirishga imkon bermaydi. Shunday bo'lsada, hamma vaqt o'qishni davom ettirishi lozimligini qalban his etib yuradi. Bunday moddiy qiyinchiliklar uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turli tuman odamlar bilan uchrashadi, yaxshi-yomonni ko'radi. Hayotning murakkab qirralariga duch keladi. Ular haqida yozishni orzu qiladi. Bu orzu uni Chikago, Sent-Luis, Klevelend, Pitsburg, Nyu-York gazetalari bilan aloqa bog'lashga yetaklaydi. 1892-yil iyun oyida yigirma bir bahorni qarshilashiga ikki oy qolganida

Chikago gazetasida durustgina maqolasi “Negr Jeff” nashr etiladi. Uch yil davomida bu gazetada faoliyat yuritganidan so’ng, oylik maoshi yuqoriroq bo’lgan boshqa ishlarga o’tib ketadi. Ammo aslini olganda u bu yerda tajriba maktabini o’taydi, ya’ni uning bu ijodiy faoliyati katta ijod ko’chasiga qadam qo’yishiga turtki bo’ladi. Drayzer journalist sifatida faoliyat yuritgan paytda hech qachon mashhurlik cho’qqisiga intilmagan. U maqola va xabarlar yozayotganida, ularga ko’p ham badiiy jilo beravermasdi. Ya’ni u bo’rttirish, yanada serjilovlantirish san’atidan olisda edi. U shunchaki jamiyat hayotida sodir bo’layotgan, odamlar e’tibor berishi kerak bo’lgan, hayotning ko’z ilg’ar-ilg’amas nuqtalarini omma e’tiboriga havola etardi. Balki real hayot bilan birgalikda qadam tashlagani uchun ham odamlar orasida tez tilga tushadi. O’zi xohlamagan bo’lsada, uning nomi gazetalarda tilga olina boshlanadi. Sent-Luyis gazetasida faoliyat yuritishi davomida yangi qirralari ochilib boradi. Endi Drayzer dramaturg, kritik, serqirra ijodkor va izlanuvchan muxbir sifatida tilga olina boshlanadi. Uning tanqidiy maqolalari xalq orasida tez ommalashadi va u kritik muxbir sifatida samarali ijod qiladi. 1890-yil tajribali muxbir keyingi asari uchun zamin yaratadi. O’tgan yillardagi faoliyati davomida maxsus kichik-kichik hikoyachalar yoza boshlaydi, ularga maxsus qahramonlar tanlaydi, diolog, monolog bilan boyitishga harakat qiladi, obrazlar yaratishda badiiy bo’yoqlardan foydalanadi, ularni jonlantirishga, yanada kitobxonga yaqinlashtirish uchun butun mahoratini ishga soladi. Bilimga tashna Drayzer o’sha vaqtda keng tarqalgan Gerbert Spenser falsafasini qiziqib o’rganadi. Uning qarashlari Drayzerni sotsial voqealarni biologik qonunlar asosida tasvirlashga, turmushni noto’g’ri talqin etishga olib boradi. Spenser og’ir ahvolga hukumatni ham, jamiyatni ham ayblab bo’lmaydi, bunga hayotning biologik qonunlari aybdor, deydi. U yugurishda ildam, kurashda kuchli yengadi, degan qarashni targ’ib qilar edi. Drayzer muxbir-reportyor bo’lib Chikago, Nyu-York kabi katta shaharlarda ishlay boshlaydi. Xalqning og’ir ahvoli bilan tanishadi. Lekin Spenser qarashlarining asossizligini tushunib yetmaydi. Dastlabki hikoyalaridagi umidsizlik kayfiyati turmushni to’g’ri anglamaslik oqibatida kelib chiqadi. Oliy ma’lumotli bo’lmasada Drayzer gazetalarda durustgina maqola va

xabarlarini berib boradi. Keyinchalik T.Drayzer L.N.Tolstoy ijodi bilan tanishadi. Tolstoy asarlari uni yozuvchilik ko'chasiga olib kiradi. Uning asarlarini muttassil o'qiydi va ular yosh Drayzerga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning ijodi shunisi bilan qiziq-ki, u hech qachon o'zi yaratgan obrazlardan ko'ngli to'lmagan, doim qandaydir kamchiligi borday tuyulavergan. Balki shuning uchun hamdir uning bu tantiqligi, ijodidan ko'ngli to'lmasligi yozuvchi qalamini yanada o'tkirlashtiradi. Bekorga uni zamonasining "yozuv mashinkasi" deb atashmagan. Tabiiyki, bu narsa uni yanada ruhlantiradi, u she'riyat sohasida ham qalam tebratadi. Biroz muddat opera teatrida ham ishlaydi. Operalar uchun maxsus kichik-kichik she'riy parchalar yozib tiradi, xususan komediya yo'nalishidagi "Jeremi operasi" uchun yozgan she'riy parchalaridan namunalar saqlab qolingan. Tajriba maktabini yaxshi o'tagan Drayzer nazmdan nasrga tomon ilgarilab boradi. U o'z ustida ishlashni kanda qilmaydi, ilmimi, dunyoqarashini yanada boyitishga harakat qiladi. Ilm doirasini falsafa, tarix, adabiyot, ma'naviyat sohasi bilan kengaytiradi. Garchi Drayzer oily ma'lumotli bo'lmasada, Benjamin Franklin siyosatini o'zlashtirishga harakat qiladi, uning asarlarini qunt bilan o'qiydi, jahon adabiyoti yozuvchilarining asarlariga katta qiziqish bildiradi. Jahon adabiyotining kuchli qalamkashlari Edgar Allen Po, Gerbert Spenser, Jon Steynbek, Jek London, Edit Varton, Stefen Kreyn, Balzak, Emil Zola ishlarini katta qiziqish va qunt bilan o'qiydi, ular ijod qilayotgan oqimini tahlil qiladi va ulardan namuna sifatida o'z yo'nalishini, o'z uslubini shakllantiradi. Xullas, Drayzerning ijod bulog'I hech qachon qaynashdan to'xtamaydi.

"World" gazetasida qisqa faoliyat yuritganidan so'ng Drayzer "Haviland and Co-a music-Production" kompaniyasigaishga kiradi. Bu kompaniyada u akasi Paul Drayzer bilan birgalikda faoliyat yuritadi. Teodor qo'shiq matnini yozar, akasi esa unga musiqa bastalardi. Aka-uka Drayzerlar birgalikda Amerika tarixida o'chmas iz qoldirganlar. Ular Indiana shtati madhiyasi "On the banks of the Wabash" ("Vabash qirg'oqlarida") ni yaratganlar. Bu madhiya hali ham Indiana shtatida yaxshi xotirlanadi, taassufki uning mualliflari ham. T. Drayzer adbiy ish jarayonida jurnalizm sohasida anchagina tajribaga ega bo'lib oladi. Endi u

muharrirlik qila boshlaydi. “Every month” va “The Woman’s Magazine of Literature and popular music” jurnallariga bir qancha muddat muharrirlik vazifasini bajaradi. Maqola, ocherk, hikoya, povestlar bilan gazeta nashrlarini rangbarangligini oshiradi. Ana shu ijod namunalarida Drayzer ilk bor o’z shaxsiy fikrini, nuqtai-nazarini bildiradi, jamiyat muammolarini keng ommaga havola etadi. Tarix, falsafa, mantiq, san’at, iqtisod va siyosat sohalariga ham e’tiborini qaratadi. Drayzerning shu tariqa samarali ijod qilishiga jahon adabiyotini qunt bilan o’rganganligi, xususan Romantisizm, Realizm yo’nalishidagi ijod namunalarini o’zlashtirishi va Naturalizm oqimining namoyondalari Charlez Darwin, Gerbert Spenser, Tomas Xuxli va shuningdek kuchli qalam egalari Tomas Gardi va Onore De Balzak asarlarining chuqur ta’sir ko’rsatishi keng imkoniyat eshiklarini ochib beradi. 1897-yilda Drayzer “Every month” jurnalining muharrirligi vazifasini tark etishga majbur bo’ladi.[17.98.] Endi ijod pillapoyalarida o’sib borayotgan yosh niholni sindirishga harakat qilgan ba’zi bir g’ayriniyat kimsalar Drayzer muvaffaqiyatini ko’rolmaydilar va uni erkin ijod qilishiga xalaqit berdilar. Endi u yozib bergan maqolalariga kamroq haq to’lanadigan, har bir yaratgan ishidan kamchilik axtaradigan bo’lishdi. Hatto uning bir ocherki o’n ikki marotaba qaytarilgan, xullas uning maqolalari endi gazeta va jurnallarning har yangi sonida emas, balki oyida bir ikki bor gazeta yuzini ko’radigan bo’ldi. Shundan so’ng Drayzer bu jurnalni tark etdi. Va uch yil davomida mustaqil erkin yozuvchi sifatida faoliyat ko’rsatdi. Ora-orada “Munsley’s Metro politan” va “Harper’s Monthly” jurnallariga o’z hikoya va ocherklarini taqdim etib boradi. Uch yillik tanaffusdan so’ng Drayzer yana jurnalistika sohasiga qaytadi. Endi u tajribali journalist sifatida Amerikaning taniqli kishilari, mashhur yozuvchilar va davlat odamlaridan intervyu olardi. U Andri Karnegi, Tomas Edison, Marshal Fild, Villiam din Hovels va Filip Armordan intervyu olgan. U bu sohaga yanada chuqurroq bog’lanib borardi. Endi Drayzer boshqa jurnallar aloqa o’rnatadi va keng qamrovli mavzularda ijodiy izlanishlar olib boradi. Ijodkorimiz “Amerika mevachilik sanoati”, “Chikago go’sht mahsulotlari”, “Zamonaviy san’at”, “Shisha stakanlar yasash sanoati” va

“Alfred Shtigilz portreti” mavzularida ilmiy maqolalar e’lon qiladi. Bu ishlaridan Drayzerning naqadar serqirra ijodkor, izlanuvchan shaxs ekanligini e’tirof etishdan boshqa ilojimiz yo’q. Yozuvchi jurnalistika sohasi bilan birga nazm va nasrda ham o’zini sinashda davom etaverdi. Uning ilk hikoyalari safiga “Negr Jeff”, “Butcher Rogaum’s Door” (“Qassob Rogam eshigi”) va “Shining Slave Makers” ni kiritishimiz mumkin. Bu hikoyalar bugungi kungacha kitobxonlar orasida yaxshi olqishlanadi, ular hali ham ta’sir kuchiga kitobxonlar nazdida. Bu hikoyalar Amerika hayotida XIX asrning so’nggi o’n yilligida yuz bergan ijtimoiy o’zgarishlarni o’zida aks ettiradi.

Drayzer ijodining birinchi davrida (1900-1917) yirik realistik asarlar yozishi bilan bir qatorda reaksion Spenser falsafasiga berilishi unda ziddiyatli fikrlar tug’ilishiga va uning yanglish xulosalar chiqarishga olib boradi. Drayzer ijodining ikkinchi davri (1917-1945) Oktabr revolyutsiyasidan keyingi yillarga to’g’ri keladi. Sotsialistik g’oyalar ta’siri ostida u o’zidagi burjua ideologiyasi ta’sirini bartaraf etadi, yirik tanqidiy realist yozuvchi bo’lib yetishadi.

Daryzerning yana shaxsiy hayotiga qaytadigan bo’lsak, 1898-yil u uchun unutilmas yil bo’ldi. U bo’lajak turmush o’rtog’ini uchratdi. Uning jufti haloli Sara Osborn Vayt Missuri shtatida maktab o’qituvchisi bo’lib ishlardi. Avvaliga ular shunchaki suhbatdosh do’st edilar. Drayzer Sarani mashhur bir yozuvchining hayoti va ijodiga bag’ishlangan kechada uchratdi. Sara ham xuddi Drayzer singari adabiyot oshuftasi edi, ular san’at va adabiyot shaydosi edilar. Kechada bu juftlik orasida kechgan iliq suhbat ularni bir umrga bog’ladi. Qizning nutqidagi samimiylilik, adabiyotga mehri va ko’zlaridagi ilmga chanqoqlik otashi, o’zini tutishi, odob bilan so’zlashi Drayzerni batamom o’ziga maftun etdi. Dastlabki uchrashuvlarda ular faqat ijtimoiy sohalarda, ayniqsa adabiyot sohasida, qizning qaysi asarni o’qigani-yu va asarlar tahlili haqida suhbat qurar edilar. Drayzer qizga ko’p maktub yuborar edi va maktublarning birida Drayzer Saraga bo’lgan munosabatini yashirib o’tirmadi. Va uning qo’lini so’radi. Sara ham yigitga befarq emas edi va ko’p o’ylab o’tirmay, qiz yigit taklifini qabul qildi. Va bu uchrashuvlarning intihosi nikoh bilan yakunlandi. Ming afsuslar bo’lsinki, bu

nikoh ko'pga cho'zilmadi va ular 1909-yilda ajrashdilar. Ammo Drayzer hech qachon ajralishni xohlamagan. Sara esa turmush o'rtog'ining xohish-istaklariga qaramay uni tashlab ketgan. Bu Drayzer qalbida o'ta og'ir jarohat bo'lib qoldi.

Drayzer 1893-yilda Sent-Luyis gazetasida faoliyat ko'rsatayotgan paytda katta bir ishga qo'l urdi. Ayolining qo'llab-quvvatlashi va do'sti Artur Genri (u yozuvchi shuningdek "Toledo Blade" gazetasining muharriri) yordami bilan birinchi romani "Sister Carrie" ("Baxtiqaro Kerri") ni yozishga kirishdi. Bu asarning yozilishiga tuktiki bo'lgan asosiy sabab Drayzerning opasi bilan bog'liq bo'lgan hodisa hisoblanadi. Drayzerning opasi Emma Chikagolik tadbirkor Xopkins bilan birga qochib ketadi. Xopkins oilali bo'lishiga qaramay o'z oilasini bir tiyinsiz qoldirib sevgilisi bilan qochib ketadi. Drayzer bu qissani o'ziga qolip qilib olib asar yozishga kirishadi. Bu asar Amerika aholisini larzaga soldi. Drayzer bu asarida tabiat, borliqning falsafiy qarashlari bilan shahar hayotining qayg'uga to'la jabhalarini uyg'unlashtiradi. Ilk ijod namunasi birinchi yirik asari "Baxtiqaro Kerri" (1900) romani mahorat bilan yozilib, yozuvchi nomini Amerikaga mashhur qilib yubordi. Garchi roman o'n uch yil bosishga ruxsat berilmasada, uning qo'lyozmalarini ko'pchilik o'qib chiqadi. Bu davr ichida roman bosmadan chiqadi.

Asarning asosiy g'oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud degan illyuziyani fosh etishda ko'rinadi. Kerrining orzu-istaklari kapitalistik illatlar avj olgan shaharda amalga oshishi qiyin edi. Haftalab u sarson-sargardonlikda ish axtaradi. "Baxtiqaro Kerri" romanining himmati jamiyatdagi xalq ommasining og'ir turmushi, ayniqsa, korxonalarda ishlovchi ayollarning qattiq eksplutatsiya qilinishlari, mushkul ahvolga tushib qolgan Kerrining yuztuban ketishi evaziga ko'tarilishi, burjua Gerstvod oilasidagi munofiqlik, boy kvartal Brodveygdagi dabdabali hayot, tramvay ishchilarning ish tashlashlari tasviri ishsizlik natijasida ko'chaga chiqarib tashlangan son-sanoqsiz kambag'allarning och tentirab yurishlarining haqqoniy aks ettirishshida ochiq ko'rinadi.

Yozuvchining ya'ni Teodor Drayzerning birinchi romani bosishga ruxsat etilmasligi, uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etsa ham, umidini biroz so'ndirsa-da,

ammo u hayotning beshavqat qonunlari oldida taslim bo'lmaydi, umidsizlikka berilmaydi, o'zini qo'lga olib katta kuch va shijoat bilan yangi umid ila ikkinchi romani ya'ni "Jenni Gerxard" (1911) ustida ishlaydi. Bu ikki asarda ham oddiy qizlar taqdiridagi ijtimoiy axloqsiz masalalar tasvirlangan. Ushbu romonida ham kambag'al oiladan chiqqan qizning burjua jamayatiidagi fojiasi ko'rsatilgan. Asarning g'oyaviy yo'nalishi oddiy qizning xulqiy pokizaligi, uning buzilgan burjua axloqiga qarshi qo'yilishida namoyon bo'ladi. Romanning asosiy syujeti, ishchi qizi Jennining fojiasi, u bilan millionerning o'g'li Lester Keyn o'rtasidagi sevgi tarixida ochiq ko'rinadi. Kambag'al Jenni boy yigit Keyn bilan turmush qurolmaydi. O'sha jamiyat urf-odatlar, sotsial adolatsizliklar bu yoshlarning tabiiy sevgilariga to'sqinlik qiladi. Drayzer oddiy qizning odobliligi, vafodorligi qalbining musaffoligini ko'rsatish orqali xalq kuch-qudratiga ishonchini ifodalaydi. Jenni o'zining eng yaqin kishilari – ota-onasi, qizi Vesta, nihoyat sevgani Lesterdan ajraladi. Lekin bunday og'ir yo'qotishlar uni umidsizlikka tushirmaydi. U yetim bolalarni asrab oladi va bundan so'nggi hayotini ular tarbiyasiga bag'ishlaydi. Sinfy ziddiyatlar imtiyozli tabaqalarning yaramas xulq-atvori, kambag'allarning og'ir turmushi tasviri bosh qahramon Jenni Gerxard hayoti bilan bog'liq ravishda burjua jamiyatidagi aqchaning halokatli ta'sirini ko'rsatishga qaratilgan.

Teodor Drayzerning dushmanlari bu qashshoq, o'qimagan yigitning mashhur bo'lib ketishidan xavotirga tushishadi. Bu davr ichida Drayzer hayotida notinchliklar boshlanadi. 1912-yilda Drayzer ilk bor Yevropaga safar uyushtiradi. Uni Britaniyalik nashriyotchi Grand Richards mehmon sifatida o'z mamlakatiga taklif etadi. Angliyaga birinchi marotaba tashrif buyurgan Drayzer bu yerning tabiatidan, ob-havosidan bahramand bo'ladi. Ijodkorga bu zamin yaxshi taassurot qoldiradi. Qisqa vaqt ichida bu diyorga sayohat uyushtirgan yozuvchi bu mamlakat safari haqida asar yozadi: "A Traveller at forty"(1913) ("40 yoshli sayohatchi "). Shundan so'ng Drayzer Grinvich qishlog'iga yo'l oladi va bir muddat u yerda yashaydi. 1910-yilda yozuvchi liberal oqimining vakillari va radikal guruhlar bilan yaqin aloqa o'rnatadi. U siyosiy radikalchilar xususan Maks Istman, Daniel De

Leon va Floyd Dell bilan yaqindan tanishib ular bilan birlashadi. Bu oqim yo'lboshchisi Margaret Sangerni qo'llab-quvvatlaydi. Anarxist Emma Goldman bilan yaqindan do'st tutinadi va u bilan tez-tez fikr almashib turadi. Drayzer o'zining siyosiy qarashlarini, fikrlarini, estetik maqsadlarini "The Masses" jurnali orqali namoyon etib boradi. Umuman olganda Drayzer mustaqil siyosatshunos, o'z qarashlariga ega mustaqil va essentik ya'ni noan'anaviy ideyalogiyaga ega shaxs edi.[23.67.]

1911-yildan so'ng Amerika sahnasiga ancha ko'zga tashlanib qolgan publisist H.I.Menken chiqib keldi. Menken o'z ijodiyoti va "Smart Set" jurnali bilan yaqindan aloqa o'rnatgandi. U yozuvchilar haqida o'y-fikrlarini, qarashlarini, xato va kamchiliklarini va yutuqlarini shu gazeta orqali taqdim etib borardi. Gazeta nashrlarining birida Menken Drayzerni Amerikaning haqiqiy ulug' realisti deb e'lon qildi. Bu qo'llab-quvvatlashlarga qaramay hali ham ba'zi g'ayriniyat kimsalarning harakati tufayli ijodkorning ancha ko'p qo'lyozmalari nashriyot ostonalarida qolib ketardi, muharrirlar yozuvchi asarlarini ro'y-rost qisqartirib tashlanardi. Bunga yorqin misol qilib Century kompaniyasini olishimiz mumkin. Bu nashriyot uyi bir necha marta "40 yoshli sayohatchi"("A Traveller at Forty") asarini qisqartirdi. Natijada uning haqiqiy original nusxasidan 40 ta bo'limi qoldirilib ketildi, omma ahliga taqdim etilmadi va bu katta asar kichkina bir qissaga aylantirildi. O'sha paytda senzura juda qattiq edi. Nashriyotchi-yu muharrirlarga senzura ta'siri cheklanmagan edi. Bu narsa Drayzerni ham cheklab o'tmadi. Uning yana bir asari "The Genius"(1915) asari senzuraga uchradi. Bu asar zudlik bilan kitob javonlaridan olib tashlandi. Ammo haqiqat baribir qaror topadi deganlaridek, bir qancha vaqt, bahs-munozaralardan so'ng asr oxir-oqibat 1925-yilda qayta nashr qilindi. Ammo minglab kitobxonlar uni asarlarini axtarib kelaveradi, uning yangi asarlarini zoriqib kutishadi, bu esa yozuvchi Drayzerni yangi ijod sari da'vat etaveradi. So'ng u yana katta ishga qo'l uradi. Bu ishi yozuvchining "The Trilogy of Desire"("Istak trilogiyasi") edi.[34.9.]

"The Trilogy of Desire"("Istak trilogiyasini") tashkil etgan romanlari "The Financier" ("Moliyachi") (1912), "The Titan" ("Titan") (1914) va "The Stoic"

(“Matonatli”) (1947) da kapitalistik monopoliyalarning kelib chiqishi va ularning hukmronligi mamlakat iqtisodiy va ma’naviy hayotiga qanday halokatli ta’sir etgani real ko’rsatilgan.

“Moliyachi” romanining qahramoni yosh bola Frank Kaupervud. U akvarumdagi katta qisqichbaqa oldiga kelib qolgan karakatitsa degan maxluqni yutib yuborganini ko’radi. U bunday hayot shunday qurilgan ekan, zo’rlar zaiflar hisobiga yasharkan, degan xulosaga keladi. Frank kapitalistik jamiyatning odamiylikka yot egoistik qonunlarni tez o’zlashtiradi. U vaziyatga qarab beshafqatlik, beburdlik qiladi, yo’lidagi har qanday to’siqlarni bartaraf etadi.

Voqea fuqarolar urushi undan keyingi yillarda bo’lib o’tadi. Shimolning puldor korchalonlari urushda ko’proq foyda olishga intiladilar. Drayzer “Moliyachi” da o’z davri mamlakat iqtisodiy ahvolini katta realistik kuch bilan tasvirlab, boylik uchun kurashlarda ishlatilayotgan siyosiy nayranglar va yovuzliklarni ochiq ko’rsatadi. Hamma narsa aqchaga bo’ysundirilganligi burjua jamiyatda ko’pchilik omma uchun baxtli yashash mumkin emasligi juda yaxshi misollar bilan asarda ko’rsatilgan. Amerikada son-sanoqsiz fojiali voqealar, “puldor korchalonlardangina bir pog’ona past turgan sinfning vakili” degan aqidalar orqali real qilib aks ettirilgan.

Trilogiyaning ikkinchi romani “Titan” da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan yirtqich kapitalist sifatida ko’rinadi. Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boylik, hukmronlikka intilishi, bu yo’lda uchragan hamma to’siqlarni shafqatsizlik bilan ta’riflaydi va shafqatsizlik bilan bartaraf etishi, yemirib tashlashni ham ko’rsatadi. U o’z nafsini qondirishni o’ylaydi. Shuning uchun ushbu asar “Istak trilogiyasi” deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta’kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g’ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta kapitalistik shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g’ayratga to’lgan bahaybat Kaupervudning o’zini ham qudratli “Titan”, deb ataydi

Trilogiyadagi “Moliyachi” va “Titan” romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi, imperializm davriga kirgan kapitalizm korchalonlarining vahshiyona harakatlarini fosh etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

Matonat” yulg’ichilikning foydasizligini tushunib yetgan moliyachi haqidagi hikoyalar to’plamidir. Ushbu asarlar Amerika kitobxonlarining zoriqib kutgan asarlari bo’ldi. Shunday bo’lsada, muxoliflari Teodor Drayzerga shubha bilan qarashadi.

Teodor Drayzer hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta’sir ko’rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o’zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o’qib chiqqanligini ta’kidlab, uning qarashiga katta ta’sir o’tkazganligini badiiy ijod bo’sag’asiga yetaklab kelganligini alohida e’tirof etib o’tadi. Teodor Drayzer qo’liga ilk bora qalam olar ekan kelajakda Amerika tarixini va haqli hayotidagi muhim voqealarga qo’l urishini o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Shuning uchun ham yozuvchi o’zining asarlarida qashshoqlar hayotini, og’ir sinov so’qmoqlarini ko’proq qalamga oladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi, unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam berdi.

Uning “Tayanch” (1946) romani, “Yigirma erkak” (1919), “Katta shahar ranglari” (1923), “Zanjirlar” (1927), “Ayollar galeriyasi” (1929) kabi novellalari, “Baraban qoq!” (1920), “Fojiali Amerika” (1931) kabi boshqa publistik to’plamlari nashr ettirilgandi. U 1932-yilda Amesterdamda o’tkazilgan tinchlik va madaniyatni saqlash bo’yicha kongress tashkilotchilardan biri bo’ldi. Drayzerning Amerika ishchilar harakati bilan aloqasi mustahkamlanadi. U matbuotlarda ishtirok eta boshlaydi. 1931-yilda muhim publistik asari “Fojiali Amerika” ni yozadi. Kitobda monopoliyalar natijasida mamlakatning iqtisodiy ahvoli yomonlashgani, mamlakatning siyosiy , madaniy hayotida tushkunlik kuchayib borayotgani, burjua

jamiyatini qurshab olgan umumiy tanglik oqibatida fabrika, zavodlar bekilib, million-million ishchilar ko'chaga chiqarib tashlangani haqida hikoya qiladi.

Drayzer bu kitobda kapitalistik ekspuluatatsiyani qoralab qolmay, mehnatkashlarning o'z ozodliklari uchun xo'jayinlarga qarshi olib borayotgan kurashlarini aks ettiradi; burjua jamiyatining istiqboli yo'qligini, uning o'rniga eng adolatli ijtimoiy tuzum kelishini ochiq aytadi. Yozuvchi "Amerika fojiasida" alohida shaxslarning baxtsizligini tasvirlagan bo'lsa, "Fojiali Amerika" da millionlarning fojiasini ko'rsatgan.

"Istak trilogiyasi" da Amerika adabiyotida tanqidiy realizmning eng yaxshi namunasi. Kaupervud Balzak yaratgan pulga o'ch, yuzsiz oltin asosiga qurilgan kapital dunyosining bosqinchilikdan iborat xarakterini aks ettirgan tipik obrazlarni yaratganligini eslatadi. Adib yozib tugatishga ulgurmagan "Matonatli" romanida burjua jamiyatida tug'dirgan baxtsizlik va qashshoqlikdan qutilish uchun kapitalistik eksplutatsiyaga qarshi keskin kurashish zarur, degan xulosaga keladi. Shunday qilib, "Istak trilogiyasi" adolatli jamiyatga ishonch ruhida tugaydi.

1915-yilga kelib "Daho" va 1925-yilda "Amerika Fojiasi" romani yozilgandan so'ng Drayzerning ijod darvozasi keng ochildi. "Daho" (1915) romanida yozuvchi burjua jamiyatida haqiqiy san'atkor talantining barbod bo'lishini ko'rsatadi. Asar qahramoni katta iste'dodga egasi rassom Yudjin Vitladir. U o'z ijodida mehnatkash ommaning og'ir ahvolini, ko'zga tashlanib turadigan daxshatli voqealarni real aks ettiradi, chunki u shu narsaga intiladi. Bu haqiqiy san'at ko'pchilikka ma'qul bo'ladi. Biroq ularni sotib olishni imkoni bo'lmaydi. Bunday surat puldorlarga yoqmaydi, shuning uchun ular olmaydilar. Yashash imkoniyatlaridan mahrum etilgan rassom o'z san'atini tashlab, savdo sohasidagilarga katta manfaat keltiruvchi reklama firmasiga o'tadi. Undan so'ng bir nashriyotning direktori sifatida boyib, puldor-korchalonlarga foyda keltiradigan ish qilish bilan o'z talanti va san'atini barbod etadi. Yudjin butunlay o'zgarib, ijod etmay qo'yadi. Shunday qilib, uning dahosi yemiriladi.

Drayzer qahramon talantining yemirilishini kapitalizmning halokatli ta'siri debgina emas, balki, shuningdek, biologik omillar oqibati, deb qarasa ham, lekin

asardan kapitalistik Amerika haqiqiy realistik san'atning yovuz dushmani, degan aniq g'oyaviy mazmun kelib chiqadi. Shu sababli reaksion doiralar "Daho" romanini taqiqlashga erishadilar. Asar o'z zamonasidagi illatlarning negizini o'sha uzoq o'tmishda ko'radi va unga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Biroq Drayzer bu safar o'z zamonasining dushmanlari bilan mardonavor kurash olib boradi va 1923-yilda asarini qayta nashr ettirishga muvaffaq bo'ladi.

"Amerika fojiasi" voqelikni keng qamrab olishi, ko'tarilgan g'oya va tanqidiy fikrning chuqurligi, badiiy mahoratning yuksakligi bilan jahon progressiv adabiyotining eng yaxshi realistik asarlari qatoridan joy oldi. Ushbu romanida Drayzer pulning san'at ustidan fojiiy hukmronligi va qanday yo'l bilan bo'lmasin, ijtimoiy "yutuqqa" erishishga intilgan "o'rta hol" yigitning ma'naviy halokati haqida hikoya qiladi. Undagi favqulodda katta talantni butun Amerika kitobxonlari olqishlaydi. U o'z ijodida realizm bilan naturalizm tamoyillarini birlashtirgan "Baxtiqaro Kerri" (1973), "Amerika fojiasi" (1976) va "Jenni Gerxardt" (1982) kabi romanlari o'zbek tiliga nashr qilindi. [26.6.]

Teodor Drayzer ko'pgina adiblar singari talaygina asarlar yozmadi. Uchtagina romanining o'zi jahon adabiyotini bazab turdi. Mashaqqatli hayot va ijod yo'lini bosib o'tgan Drayzer Amerika adabiyotida sotsialistik realizm metodini boshlab bergan adibdir. Jahon adabiyotida tabiat tomonidan in'om etilgan talantdir. Keling Drayzer asarlariga yana bir nazar tashlaylik: 8 ta yirik roman: "Sister Carrie", "Jenny Gerhardt", "The Genius", "Financier", "American Tragedy", "Titan", "The Bulwark", "The Stoic". Shulardan "The Bulwark" va "The Stoic" Drayzer o'limidan keyingina nashr etilgan. Bundan tashqari Drayzer she'riyatda ham ijod qilgan: "Moods, Cadenced and Disclaimed"(1928), "Moods, Philosophical and Emotional"(1935). Hikoyalari: "Free and other stories"(1918), "Lesser novels and stories"(1927). Pyesalari: "Plays of the Natural and super natural"(1916), "The hand of the Potter"(1918). Sayohatlari haqidagi kitoblari: "A Traveller at Forty", "A Hoosier Holiday"(1915), "Dreiser looks at Russia"(1928).¹ Avtobiografik asarlari: "Newspaper Days"(1922), "Dawn"(1931). Falsafiy asarlari: "Hey Rub-a Dub-Dub". Sotsial-tanqidiy asarlari: "Tragic America"(1932),

“America is worth saving”(1941). Character sketches: “Twelve Men”(1919), “A Gallery of Woman”(2 qismli) (1929), “The Living thoughts of Thoreau”(1939).[28.8.]

1920-yillarga kelib Drayzer Amerikada adabiyot ozdligi uchun kurashgan qari jangchi sifatida mashhur bo'ldi va u bu urushda g'alabaga erishdi. 1927-yili Sovet hukumati Drayzerni Oktyabr Revolusiyasining 10 yillik yubileyi munosabati bilan Moskvaga taklif qilishgan. 1928-yilda Rossiyadagi safaridan qaytib kelgach Drayzer bu sayohati haqida gazetaga maqola yozadi. 1930-yilga kelib u kam ijod qildi, o'zini siyosatga bag'ishladi. Amerika imperializmiga qarshi nutq so'zladi, bir qancha antifashist tashkilotlarida nutq so'zladi, Parijdagi Xalqaro tinchlik konferensiyasida qatnashdi, u jamiyat hayotidagi muammolar haqidagi fikr-mulohazalarini “Tragic America” asarida bayon qildi. 1938-yilda Drayzer Nyu-Yorkni tark etadi va Kaliforniya shtatiga borib joylashadi, u yerda umrining oxirigacha ikkinchi turmush o'rtog'I Helen bilan yashaydi. Uning oxirgi ikkita romani “The Bulwark” va “The Stoic” uning eng muhim asari hisoblanadi. Chunki bu asarlari orqali uning oldingi asarlarining mazmun mohiyatini tushunish mumkin.

Drayzer “America is worth saving” asarida ingliz imperialistlarining yordamiga qarshi chiqqan, urushdan foyda oladigan amerikaliklarni tanqid ostiga olgan. Drayzer 1944-yil oxirgi marta Nyu-Yorkga boradi. U yerda Amerika San'at va Xatlar Akademiyasidan mukofot oladi. Akademiya Drayzerning mashhur asarlari sanalmish “Baxtiqaro Kerri” hamda “Amerika Fojiasi” asarlarini buyuk romanlar qatoriga kiritgan, ular asosida bir qancha filmlar suratga olingan. Drayzer Amerika adabiyoti tarixida buyuk realist-naturalist deb hisoblangan, dunyo adabiyoti tarixida buyuk yozuvchilar qatoriga kiritilgan. Drayzer 1945-yilning 28-dekabrida “The Stoic” asarining oxirgi bobini yozayotgan bir paytda olamdan o'tdi. Bu asar uning oxirgi qiziqishi bo'lgan induizmga bag'ishlangan. Keyinchalik xotini Helen Drayzer uni nashrga bergan. Drayzer Golivudda Forest Lavn qabristonida 1946-yil 3-yanvarda ko'mildi. Ko'mish marosimida do'sti L.Menken Drayzer haqida shunday deydi: “Shak-shubhasiz u buyuk yozuvchi edi, Amerika

adabiyoti undan oldin va keyin o'zgardi, xuddi biologiya Darvin yashagandan oldin va keyin o'zgargandek". Boshqa do'sti Charli Chaplin Drayzerning "The Road I came" she'ridan parcha o'qidi: Oh space! Change! Toward which we run. So gladly, Or from which we retreat In terror Yet that promises to bear us In itself Forever Oh, what is this That knows the road I came? Yuqorida aytib o'tganimizdek, Teodor Drayzer realist va naturalist yozuvchidir. Naturalizm haqida yozishdan oldin, realizm haqida to'xtalib o'tamiz. Realizm – (lotincha realis – moddiy haqiqiy) falsafiy yo'nalish. Unga ko'ra, ongdan tashqaridagi mavjud reallik go'yo ideal obyektlarning mavjudligidan yoki subyektni bilish jarayonida va tajribaga bog'liq bo'lmagan bilish obyektidan iboratdir.

XIX asr oxiridagi Amerika yozuvchilari uchun realizm faqat bir adabiy vosita bo'lib qolmadi. Bu haqiqatni garirish va siyqasi chiqqan an'ana-yu aqidalarni yo'qqa chiqarish yo'li edi. Shu tariqa bu yo'nalish erkinlik kirituvchi va jamiyat bilan zid keluvchi maqom kasb etadi. Zamonaviy realizmning muhim yo'nalishlari: tarixiy materializm, norealizm, neotolizm va yangi ontologiya hisoblanadi. Yangi ontologiyaning mazmunini metafizik realizm tashkil etadi.

Realizm – voqelikni mavjud borliqni badiiy adabiyot va san'atning ifoda vositalari orqali o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish. Adabiyotda realizm – hayotni voqelikdagi voqea va hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali aks ettirish metodi. Realizm – adabiyotning o'zini va tashqi olamni bilish vositasini sifatidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkoniyatini beradi. Realizm metodiga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Binobarin, realizm adabiyoti jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqich hisoblanadi.

Realizm keng ma'noda Gomer va Dante, Shekspir va Rasin, Firdavsiy va Navoiy ijodiga xos xususiyat, zero, ular ijodi hayotiylik va samimiylikka tayangan. Ammo realizm adabiy yo'nalish sifatida yozuvchilar voqelikni hayotiy aks ettirish

tamoyiliga asoslanadi, inson va tashqi olamni ongli ravishda o'rganish va bilishni taqazo etadi. Shu ma'noda jahon adabiyotida XIX asrga kelibgina o'z taraqqiyotining realizm metodiga asoslangan yangi bosqichga erishiladi.

Realizmning metod sifatida paydo bo'lish vaqti masalasida adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgani va bu usullarning turli bosqichlarni bosib o'tgani nazarda tutib, antik realizm, uyg'onish davri realizmi va sotsialistik realizmi tushunchalarining mavjudligi haqidagi qarashlarni olg'a surib keladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, realizm ijodiy metod sifatida XVIII asrda oilaviy maishiy va ijtimoiy-maishiy romanlar yaratilishi bilan bir vaqtda maydonga kelgan realizmning XIX asrning 30-yillarida Yevropa adabiyotshunoslari tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu fikr Yevropa xalqlari adabiyotlarida voqelikni haqqoniy tasvirlash tamoyili yuksak ijtimoiy-tahliliy shakllarida keng va teran ifodalanishi bilan tasdiqlanadi. XIX asrdan boshlab ko'pchilik xalqlar adabiyotida yetakchi ijodiy usul sifatida tanqidiy realizm maydonga chiqadi. XX asrdan bu ijodiy metodning gurkirab rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarning tobora kuchayib borishi va kishilar tomonidan hayotiy shart-sharoitlar insonning insondek yashashi uchun nomunofiqligi chuqurroq anglashi uchun shu bilan bog'liqdir. Turli mamalakatlarda tanqidiy realizm taraqqiyoti va xususiyatlari aynan bir xil bo'lmagan. Muayyan xalq hayoti iqtisodiy o'sishi darajasi va boshqa shart-sharoitlarning o'ziga xosligi adabiyotning ham o'ziga xosligi bildirar edi. G'arb tanqidiy realizmining qashshoqligi, oddiy kishilar insoniy qadr-qiymatining oyoq osti qilinishi jinoyat va foxishabozlikning ortishi, kishilarning ma'naviy tubanlashuvi va bir-birlaridan uzoqlashuvi singari kapitalistik turmushga o'ziga xos daxshatli kurslar nihoyatda haqqoniy hamda ta'sirchan aks ettirildi. Voqelik tasviridagi haqqoniylik va ta'sirchanlik realizm taraqqiyotiga ulkan ulush bo'lib qo'shildi.

Teodor Drayzer singari realistik yozuvchilar hayotining turli tomonlarini, xususan, jamiyat, tabiat hodisalarini inson tafakkuri va ruhiy olamini keng ko'lamda qamrab olishga intilar, ular orasidagi aloqadorlikni sababiylikni ham

e'tibordan chetda qoldirib turmaydilar. Ma'lumki hayotda hech bir narsa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, bir hodisa ikkinchisini taqazo etadi, ikkinchisi uchinchisini yuzaga keltiradi, bir hodisa keyingilariga o'zidan sabab bo'ladi. Jamiyat, tabiat, inson tafakkuri, ichki olami hatti-harakatlarida doim mana shu sababiylik qiladi. Hayotni haqqoniy aks ettiruvchi realist san'atkorlar o'z asarlarida bu qonuniy aloqadorlikni ham qamrab olishlari tabiiydir.

Yangi davr chet el adabiyotidagi asosiy adabiy oqim – tanqidiy realism. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda ma'lum xizmat qilganlardan romannavis va tanqidchi Teodor Drayzer (1871-1945). U adabiyotda sun'iylik va shartlilikga qarshi chiqib, "Nozik realist" larning favqulodda, alohida voqealarni tasvirlay olishiga javoban kundalik hayotda uchraydigan hodisalarni real ko'rsatishga chaqirdi. Shu bilan birga 1900-yillardagi asarlarida Amerika taraqqiyoti va hayotining o'ziga xos "afzallik" larini ustivorlik ruhida olib borar edi. Drayzer XIX asr oxiridagi Amerika realistlaridan biridir.

Amerika adabiyotida tanqidiy realizm XIX asrning birinchi yarmidan boshlab, A.Q.SH. da qulchilik tartiblarini bekor qilish uchun kurash harakati – abolitsionizm bilan birga kuchayib ketdi. Bu harakat XVIII asrning oxirgi choraklarida paydo bo'lgan. 1775-yili Amerika abolitsionistlatining birinchi tashkiloti barpo qilingan edi. Agar 1831-yilda A.Q.SH.da yuz bergan yaqin qulchilikni bekor qilish uchun kurash klublari oz sonli bo'lsa, 1840-yilda bu klublarning soni ikki mingga yetdi. Bu harakat o'z safiga mashhur Amerika jamoat arboblari, yozuvchilarini birlashtirgan edi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashagan realistlar ijodida sotsial tengsizlik zulmi daxshatini fosh etish bosh masala bo'lib qoladi. Ma'lumki, har bir yozuvchining o'ziga xos tasvirlash usuli bor. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qaror topgan tanqidiy realizm burjua adabiyoti o'zi, mohiyati va uning demokratik, antiimperialistik xarakteridadir. Tanqidiy realism burjuaziya jamiyatiga va uning zulm-daxshatlariga qarshi norozilik turli me'yorda, ba'zilarida kuchli shu bilan birga, bir xilda mo'tadil holda namoyon bo'ladi. Va bundan tashqari realistlar o'z ijodlarida tinchlik, ozodlik g'oyalarini ham ifoda etadilar.

Lekin hali bu tipdagi yozuvchilarning ko'plari xalq ommasidan uzoq edilar, shuning uchun ular ozodlikka erishish yo'llarini ham to'g'ri tasavvur qila olmasdilar. Bunga ularning turlicha muhitda yashaganliklari va ba'zan idealistlarning reaksion falsafiy qarashlari ta'siriga tushib qolishlari sababchidir. Masalan, insonparvar Anatol Frans sotsialistik harakatga yaqin turgan yozuvchi, lekin u hayotining ma'lum davrida tarixning takrorlanishi g'oyasini yoqlagan. Yana boshqa ulug' yozuvchilar ancha vaqtgacha yomonlikga yaxshilik qil, zo'ravonlikka qarshi turma, degan falsafani targ'ib qilganlar. Bundan tashqari, tanqidiy realizm o'z rivoji davomida turli adabiy oqimlarga duch kelgan va qisman ular ta'sirida bo'lgan. Turli taraqqiyparvar yozuvchilar turli adabiy an'analardan foydalanadilar, lekin ularning ijodiga xos narsa demokratizm ozodlik va tenglik bo'lib, burjua hayosizligiga qarshi kurash asosiy masala tarzida qolaveradi. Realist yozuvchilar burjua- tushkunlik adabiyotining turli ko'rinishlariga qarshi kurash olib bordilar. Naturalizm asosan, dastlabki realist yozuvchilarning an'alaridan kelib chiqqan, ba'zilar, hatto uni "kuchaytirilgan realizm" ham deb atashdi.¹ Shuningdek, bu oqim fransuz yozuvchisi Emili Zolya ishlaridan ham kelib chiqqan, u taqdir boshqargan dunyoga ishonmagan, balki dunyo asosan, atrof-muhit va jamiyat tomonidan tayinlanishiga ishonadi. Ilmiy determinizm Zolyaning inson tabiatini o'rganishidagi bosh vositasi bo'ladi. U o'zining bunday yangi uslubini "Le Roman experimental" (Roman tajribasi) deb atadi va bu yerda endi romannavis olimdan ustunroq tarzda faoliyat ko'rsata boshlagandi. Yozuvchi uchun to'g'ridan – to'g'ri kuzatuv ijodiy tasavvuridan joy oldi. Hayot-yozuvchi maqsadi uchun boy mavzu va syujetlarni ta'minlab berdi. Amerika naturalistik adiblar ijodi uchun sermahsul va e'tibor molik davr, ayniqsa 1890-yilda XX asrning ikki o'n yilligiga qadar cho'ziladi. 1870-yildan boshlab AQSH da bir qator dramatik o'zgarishlar sodir bo'lgan va ko'plab yosh yozuvchilar o'zgarayotgan davrni tushunish uchun yanada kuchliroq adabiyotga ehtiyojlari borligini sezishadi. Frenk Norris, Stefen Kreyn, Jek London va Teodor Drayzerdek yozuvchilar shular jumlasidandir. Ularning barisi 1870-yilda tavallud topgan. O'sha davrda sodir bo'layotgan madaniy o'zgarishlarning ko'p qismini o'zlarida singdira olgandilar,

natijada ular shunday asar yozish uslubini yaratdiki, unda dunyo o'z insonlariga befarq edi.

Yuqorida takidlanganidek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashagan realistlar ijodida sotsial tengsizlik zulmi daxshatini fosh etish bosh masala bo'lib qoladi. Ma'lumki, har bir yozuvchining o'ziga xos tasvirlash usuli bor. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida qaror topgan tanqidiy realizm burjua adabiyoti o'zi, mohiyati va uning demokratik, antiimperialistik xarakteridadir. Tanqidiy realizm burjuaziya jamiyatiga va uning zulm-daxshatlariga qarshi norozilik turli me'yorda, ba'zilar kuchli shu bilan birga, bir xilda mo'tadil holda namoyon bo'ladi. Va bundan tashqari realistlar o'z ijodlarida tinchlik, ozodlik g'oyalarini ham ifoda etadilar. Lekin hali bu tipdagi yozuvchilarning ko'plari xalq ommasidan uzoq edilar, shuning uchun ular ozodlikka erishish yo'llarini ham to'g'ri tasavvur qila olmasdilar. Bunga ularning turlicha muhitda yashaganliklari va ba'zan idealistlarning reaksion falsafiy qarashlari ta'siriga tushib qolishlari sababchidir. Masalan, insonparvar Anatol Frans sotsialistik harakatga yaqin turgan yozuvchi, lekin u hayotining ma'lum davrida tarixning takrorlanishi g'oyasini yoqlagan. Yana boshqa ulug' yozuvchilar ancha vaqtgacha yomonlikga yaxshilik qil, zo'ravonlikka qarshi turma, degan falsafani targ'ib qilganlar. Bundan tashqari, tanqidiy realizm o'z rivoji davomida turli adabiy oqimlarga duch kelgan va qisman ular ta'sirida bo'lgan. Turli taraqqiyparvar yozuvchilar turli adabiy an'analardan foydalanadilar, lekin ularning ijodiga xos narsa demokratizm ozodlik va tenglik bo'lib, burjua hayosizligiga qarshi kurash asosiy masala tarzida qolaveradi. Realist yozuvchilar burjuatushkunlik adabiyotining turli ko'rinishlariga qarshi kurash olib bordilar. Naturalizm asosan, dastlabki realist yozuvchilarning an'alaridan kelib chiqqan, ba'zilar, hatto uni "kuchaytirilgan realizm" ham deb atashdi.¹ Shuningdek, bu oqim fransuz yozuvchisi Emili Zolya ishlaridan ham kelib chiqqan, u taqdir boshqargan dunyoga ishonmagan, balki dunyo asosan, atrof-muhit va jamiyat tomonidan tayinlanishiga ishonadi. Ilmiy determinizm Zolyaning inson tabiatini o'rganishidagi bosh vositasi bo'ladi. U o'zining bunday yangi uslubini "Le Roman

experimental” (Roman tajribasi) deb atadi va bu yerda endi romannavis olimdan ustunroq tarzda faoliyat ko’rsata boshlagandi. Yozuvchi uchun to’g’ridan – to’g’ri kuzatuv ijodiy tasavvuridan joy oldi. Hayot-yozuvchi maqsadi uchun boy mavzu va syujetlarni ta’minlab berdi. Amerika naturalistik adiblar ijodi uchun sermahsul va e’tibor molik davr, ayniqsa 1890-yilda XX asrning ikki o’n yilligiga qadar cho’ziladi. 1870-yildan boshlab AQSH da bir qator dramatik o’zgarishlar sodir bo’lgan va ko’plab yosh yozuvchilar o’zgarayotgan davrni tushunish uchun yanada kuchliroq adabiyotga ehtiyojlari borligini sezishadi. Frenk Norris, Stefen Kreyn, Jek London va Teodor Drayzerdek yozuvchilar shular jumlasidandir. Ularning barisi 1870-yilda tavallud topgan. O’sha davrda sodir bo’layotgan madaniy o’zgarishlarning ko’p qismini o’zlarida singdira olgandilar, natijada ular shunday asar yozish uslubini yaratdiki, unda dunyo o’z insonlariga befarq edi.

2.2. TEODOR DRAYZERNING (YUHO)“THE TITAN” ASARINING YARATILISHI VA UNDAGI G’OYA, QAHRAMONLAR VA SYUJET MASALALAR

Ma’lumki, Teodor Drayzerning Trilogiyasi: “The Financer”(Moliyachi), “The Titan”(Yuho), “The Stoic”(Daho) kabilarning- ikkinchi romani “Titan” da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan yirtqich kapitalist sifatida ko’rinadi. Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boyluk, hukumronlikka intilishi, bu yo’lda uchragan hamma to’siqlarni shafqatsizlik bilan ta’riflaydi va shafqatsizlik bilan bartaraf etishi, yemirib tashlashni ham ko’rsatadi. U o’z nafsini qondirishni o’ylaydi. Shuning uchun ushbu asar “Istak trilogiyasi” deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta’kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g’ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta kapitalistik shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g’ayratga to’lgan bahaybat Kaupervudning o’zini ham qudratli “Titan”, deb ataydi.

Trilogiyadagi “Moliyachi” va “Titan” romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi, imperializm davriga kirgan kapitalizm korchalonlarining vahshiyona harakatlarini fosh etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

“Matonat” yulg’ichilikning foydasizligini tushunib yetgan moliyachi haqidagi hikoyalar to’plamidir. Ushbu asarlar Amerika kitobxonlarining zoriqib kutgan asarlari bo’ldi. Shunday bo’lsada, muxoliflari Teodor Drayzerga shubha bilan qarashadi.

Teodor Drayzer hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta’sir ko’rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o’zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o’qib chiqqanligini ta’kidlab, uning qarashiga katta ta’sir o’tkazganligini badiiy ijod bo’sag’asiga yetaklab kelganligini alohida e’tirof etib o’tadi. Teodor Drayzer qo’liga ilk bora qalam olar ekan kelajakda Amerika tarixini va haqli hayotidagi

muhim voqealarga qo'l urishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham yozuvchi o'zining asarlarida qashshoqlar hayotini, og'ir sinov so'qmoqlarini ko'proq qalamga oladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi, unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam berdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Teodor Drayzrning Trilogiyasi: "The Financer"(Moliyachi), "The Titan"(Yuho), "The Stoic"(Daho) kabilarning- ikkinchi romani "Titan" da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan yirtqich kapitalist sifatida ko'rinadi. Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boylik, hukumronlikka intilishi, bu yo'lda uchragan hamma to'siqlarni shafqatsizlik bilan ta'riflaydi va shafqatsizlik bilan bartaraf etishi, yemirib tashlashni ham ko'rsatadi. U o'z nafsini qondirishni o'ylaydi. Shuning uchun ushbu asar "Istak trilogiyasi" deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta'kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g'ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta kapitalistik shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g'ayratga to'lgan bahaybat Kaupervudning o'zini ham qudratli "Titan", deb ataydi.

Trilogiyadagi "Moliyachi" va "Titan" romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi, imperializm davriga kirgan kapitalizm korchalonlarining vahshiyona harakatlarini fosh etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

UCHINCHI BOB. TEODOR DRAYZERNING “THE TITAN” ASARINING TARJIMADAGI MUAMMOLARI VA O’QITISHGA DOIR USLUBIY TAFSIYALAR

3.1. TEODOR DRAYZERNING “THE TITAN” ASARINING TARJIMADAGI MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI.

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik fan sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz bir necha asrlar mobaynida qabul qilingan va rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar. Lingvistik tarjimashunoslikning ahamiyati shundan iboratki, u tarjima amaliyotida tarjimonning matn tarjimasiga “intuitsiya” yo'li bilan yondashishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbek lingvistik tarjimashunosligining asoschisi G'aybullay Salomov tarjimaga quyidagicha ta'rif bergan: “Tarjima – bu ilhom, yuksak iste'dod va intuitsiya bilan chuqur filologik bilim, tinimsiz lug'aviy mehnat hamda o'rinli ilmiy sharhning qorishmasidan iborat nazariy-ijodiy jarayondir”. Tarjima turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi vositadir. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-birlariga bo'ladigan ta'sir jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiharadi, uni serjilo qiladi. Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi g'oyalar va tushunchalar bilan boyiydi. Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi. Tarjima turli xalqlar madaniyati va ma'naviyatiga ijobiy ta'sir etadi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omilidir.

Quyida biz Teodor Drayzerning “Titan” asari tarjimalaridan namunalar ko’rib chiqamiz:

*Chicago, when it finally dawned on him, came with a rush on the second morning. He had spent two nights in the gaudy Pullman then provided—a car intended to make up for some of the inconveniences of its arrangements by an over-elaboration of plush - **Chikagoni tark etganidan so’ng yoki Chikago uni qo’yib yuborganidan so’ng, ikkinchi tong edi. U ikki kechani o’tkazganidan so’ng, unga mashina yollashdi va noqulay ahvolga qo’ymaslik uchun eng ko’rkam va chiroyligini tanlashdi.***

Yuqoridagi gapda murakkab gap berilgan bo’lib, uni sintatik o’rin almashtirish orqali amalgam oshiriladi.

*The first prominent Chicagoan whom Cowperwood thought out was the president of the Lake City National Bank, the largest financial organization in the city, with deposits of over fourteen million dollars. It was located in Dearborn Street, at Munroe, but a block or two from his hotel.- **Birinchi ko’zga ko’ringan mashxur Chikagolik Kopervuk Leyk shaxri Milliy Bank prezidentligini o’ylar edi, va u eng katta shaxardagi taskilot bo’lib, uning depozitlari miqdori o’n to’rt million dollarni tashkil etardi.***

*Addison, who was the weaker man of the two and yet forceful in his own way, admired this courageous stand on Cowperwood’s part. It was a braver thing than he himself could or would have achieved.-**Addison o’z yo’lida har ikki kishidan bir kuchsiz kishi bo’lib, Kopervud tomonida edi. Bu u uchun yo kuchliroq , boitir yohud muvafaqiyatlarga erishishning garovidir.***

Demak, Asarning asosiy g’oyasi Amerikada barcha uchun barobar imkoniyatlar mavjud degan illyuziyani fosh etishda ko’rinadi. Kerrining orzu-istaklari kapitalistik illatlar avj olgan shaharda amalga oshishi qiyin edi. Haftalab u sarson-sargardonlikda ish axtaradi. Yozuvchining ya’ni Teodor Drayzerning birinchi romani bosishga ruxsat etilmasligi, uning ruhiyatiga qattiq ta’sir etsa ham, umidini biroz so’ndirsa-da, ammo u hayotning beshavqat qonunlari oldida taslim bo’lmaydi, umidsizlikka berilmaydi, o’zini qo’lga olib katta kuch va shijoat bilan yangi umid ila ikkinchi romani ustida ishlaydi.

It is thus that life at its topmost toss irks and pains. Beyond is ever the unattainable, the lure of the infinite with its infinite ache.- bu achiq hayot darsi. Barcha hayot og'riqlariga bardoshing etmaydi.[2 bob 12 bet.]

“Oh, life! oh, youth! oh, hope! oh, years!

Oh pain-winged fancy, beating forth with fears.”

“O Hayot! O Yoshlik! Oh Orzular! Oh Yillar!

Oh og'riqlarning armonli qanoti, qo'rquv ila uradi yurak.”[3 bob 21 bet]

Yozuvchi asarda arhaik so'zlardan keng foydalangan.

“Oh, Madame!” she exclaimed. “Oh, charmant! Ze hair, it go weeth it perfect. It ees so full, so beyutiful here”—she pointed to the hips, where the lace formed a clinging basque. “Oh, tees varee, varee nize.”- O Madam! O Pari Paykar! U hayajon ila murojaat qildi. Uning sochlari, elkalari uzra tushib taralib turadi uning oyoqlari esa juda chiroyli [4 bob 23 bet]

A Voice . “How much have you got?”

A Second Voice . “You’ve been a boodler all your life.”

Alderman Tiernan . “Say, has Ballenberg weakened?”

Alderman Kerrigan . “It looks that way.”

“Canna?”

“Yea.”

“Fogarty?”

“Yea.”

Alderman Tiernan . “Aytingchi, Ballenberg kuchsizalndimi?”

Alderman Kerrigan . “Shunaqaga o'xshaydi.”

“Shudaymi?”

“Ha.”

“yog' e ?”

“Ha.”

A little sparring for time while minor matters are considered, , identifying for itself first one local celebrity and then another. “There’s Johnnie Dowling, that big blond fellow with the round head; there’s Pinski—look at the little rat; there’s

Kerrigan. Get on to the emerald. Eh, Pat, how's the jewelry? You won't get any chance to do any grafting to-night, Pat. You won't pass no ordinance to-night."

[chapter 21. 254.] - **bir oz bo'sh vaqtning qadriga yetish toshoyna oldida turish kabi yoki and the gallery is given opportunity for comment on the various communal lights yorug'likni galareyaga berayotga imkoniyatidan hisoblanib mahalliy tadbir nishonlanishini va boshqani anglash uchun yetarli edi. Bu yerda dumaloq yuzli tillasoch Jonny Dowling , mana bu ajoyib tilsimotni qara , Kerigan. Ol bu javohirni , Pet .Qanday ajoyib javohir-a ! senga tunni zor otkazish fursati bor . Endi sen tunlarni oddiy tarzda o'tkazmaysan.** [chapter 21. 254.]

that big blond fellow with the round head – dumaloq yuzli tilla sochli deb beramiz chunki o'zbek tilida *dumaloq boshli soch* deb *malla* o'girish g'aliz bo'ladi. Shuning uchun ham tarjimada ushbu frazani biz *dumaloq yuzli tillasoch yigit* deb berdik. Tarjimada bo'rtirishni, yani o'rinni qo'shishni amalgam oshirdik, sababi *Pinski—look at the little rat* turg'un birikma bo'lib, so'zma so'z tarjima qilinmaydi. Shuning uchun biz o'zbek muqobil variantini tanlab o'girdik.

Among the directors of the North Chicago City company there was one man, Edwin L. Kaffrath, who was young and of a forward-looking temperament. His father, a former heavy stockholder of this company, had recently died and left all his holdings and practically his directorship to his only son. [Chapter XXII. 80.]

Chikago shahrining Bank direktorlari orasida Edwin L. Kaffrath ismli yosh, kelajakni oldindan ko'ra oladigan qiziqqon shaxs bor edi yosh, kelajakni oldindan ko'ra oladigan qiziqqon. Uning otasi kompaniyaning katta miqdordagi mablag' egasi bo'lgan tashkilotchilaridan edi va u yaqinda olamdan o'tgan bo'lib, barcha mol muki va direktorlik lavozimini o'zining yolg'iz o'g'liga meros sifatida qoldirgan edi. [Chapter 22. 80.]

there was one man, Edwin L. Kaffrath, who was young and of a forward-looking temperament kontekstida muallifning tashqi qiyofani qanchalik mohirona

tasvirlaganligini ko'rishimiz mumkin. Muallif qahramonni chiroyli til vositasi bilan berish orqali kitobxonga uni yaqindan tanishtirishga erishgan va tarjimada buni to'laqonli berish tarjimondan katta mahorat talab etadi: *Edwin L. Kaffrath yosh, kelajakni oldindan ko'ra oladigan qiziqqon kishi* kabi o'girildi. *To his only son so's birikmasini faqat o'z o'g'liga emas, balki, o'zining yolg'z o'g'liga* deb tarjimani to'laqonli bajargan bo'lamiz.

The growth of a relationship between Cowperwood and Rita Sohlberg was fostered quite accidentally by Aileen, who took a foolishly sentimental interest in Harold which yet was not based on anything of real meaning. She liked him because he was a superlatively gracious, flattering, emotional man where women—pretty women—were concerned. She had some idea she could send him pupils, and, anyhow, it was nice to call at the Sohlberg studio. Her social life was dull enough as it was. So she went, and Cowperwood, mindful of Mrs. Sohlberg, came also. Shrewd to the point of destruction, he encouraged Aileen in her interest in them.[chapter 15.54.]- *Copervud va Rita Solbergning munosabatlari chuqurlashib borgani sayin Aylin tomonidan va Harolning hech qanday mantiqsiz ahmoqona tarzda qiziqishidan hislarining yanada jo'shishi oqibatida tamom bo'ldi. Uning uni sevishiga sabab, u o'ta saxiy, kirishimli, hissiyotli, ayollarga xususan jozibali ayollarga ishqiboz edi. Uning biroz samarali fikrlari mavjud bo'lib ularni o'quvchilariga tafsiya etardi va har holda Solbergning studiyasiga chaqirishiga erishar edi. Uning ishtimoiy hayoti kutilganidan etarlicha zerikarli edi. Shuning uchun ham Kopervudning Soldbernikiga tashrifining asosiy sababi edi . Bo'lib o'tgan qarshiliklardan xulosa qilib, u Aylinni ularga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirdi. [Chapter 15.54.]*

Yuqorida berilgan misolda berilgan: *was fostered quite accidentally* va *who took a foolishly sentimental interest* so'zlarida tarjimada hisslarning tugatilishiga sabab tarzida va ahmoqona qiziqishga sabab omil sifatida o'girildi, tarjimada o'rinli qo'shishlar va tushirib qoldirishlar *was not long in manifesting itself. At the top, in large affairs, life goes off into almost amalga* oshirildi.

The significance of this visit inexplicable tangles of personalities. Mr. McKenty, now that the matter had been called to his attention, was interested to learn about this gas situation from all sides—whether it might not be more profitable to deal with the Schryhart end of the argument, and so on.[chapter 13.42.]-**Bu tashrifning muhimligi unga ko'p manfaat keltirmasligi aniq edi. Bu ishlarning boshida, shaxsning hayoti boshi berk ko'chaga kirib qolishi hech gap emasligi,. Mr. Mc.Kenty uning atrofidagi barcha noqulay vaziyatlarni o'rganishga, Schurt bilan kelishish manfaatli emasligini unga bog'liqligi va boshqalardan uni diqqatini tortgan edi.**

Yuqoridagi misolda *gas situation from all sides* so'zi **o'zbek tiliga** noqulay vaziyat sifatida kalka usulida tarjima qilindi.

Umuman olganda, tarjimalar to'laqonli chiqan, va beixtiyor chiroyli tarjimaning matnida kitobxonlar baxra olishi uchun zamin bo'lgan.

3.2. O'QITISHGA DOIR USLUBIY TAVSIYALAR

Dars murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchidan katta mahoratni talab qiladi. Bugungi kunda hayotimizda fan texnikaning rivojlangan bosqichida axborotlarni keskin ko'payib borayotganligi va ulardan o'qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Pedagogik texnologiya – bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib olib o'qitish va bilim o'zlashtirilishining barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir. [Yunesko]

Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining tarbiya vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda va ma'lum ketma- ketlikda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shakl sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. [N.S. Saydahmedov]

Ta'riflardan quyidagi qoidalar kelib chiqadi:

- a) Pedagogik texnologiyalar oldindan loyihalalanadi.
- b) Tayyor loyihani amaliyotga tadbiq etish o'qituvchilardan katta mahoratni talab qilmaydi.
- c) Yakuniy natija kafolatlanadi.

Pedagogik texnologiya- o'quv jarayonini xarakatlantiruvchi kuch yoki oldindan aniqlab qo'yilgan maqsad yo'lida o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakunlovchi natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasidir.

Ilg'or pedagogik texnologyalarni qo'llab dars o'tilganda o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazilmaydi, uni shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali uni erkin muloqotga tortiladi va uni shaxs sifatida hurmat qilish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti ta'lim jarayonida yaratiladi.

Ta'limda shaxsni faollashtirishga qaratilgan ana shunday ehtiyoj, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilganlik holda tashkil qilish zaruratini keltirib

chiqaradi. Bu esa shaxsning ichki imkoniyatlarini, qiziqishini, istak xohishi va qobiliyatini xisobga olgan holda uni faollashtirishga qaratilgan interfaol metodlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Interfaol so'zi "lotincha" "inter" so'zidan olingan bo'lib "orasida", "o'rtasida" degan ma'noni anglatadi. Ta'lim sohasida interfaol metod bu- o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash orqali dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Interfaol usullarni asosiy maqsadi va vazifalari quyidagicha:

- 1) O'quvchilarni mustaqil ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.
- 2) Muammoli vaziyatlarni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish.
- 3) O'z-o'zini fikrlashga majbur etish.
- 4) Faollashtirish.
- 5) O'quvchilarni tashkilotchilikka undash.
- 6) Do'stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) Individuallashtirish.
- 2) Kichik guruhlarga ajratish.
- 3) Tabaqalashtirish.
- 4) O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish.
- 5) O'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Interfaol metodlarni qo'llashda foydalaniladigan vositalar:

- 1) Darsliklar, adabiyotlar.
- 2) Texnik vositalar.
- 3) Tarqatma materiallar.
- 4) Ko'rgazmali qurollar.
- 5) Multimediyalar.

O'qib o'rganish jarayonida-o'quvchilarning faolligini shakllantirish o'quv maqsadiga erishishdagi kafolotlovchi omillardan biridir. O'quvchilarning faolligi,

ular da nutqiy jarayonda erkin fikr qilish ko'nikmasini shakllantiradi, uyatchanlik , xato qilishdan qo'rqish kabi psixologik to'siqlarni olib tashlaydi. O'qituvchi tomonidan tuzilgan qiziqarli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarda muammolarni yechimini topish yo'llarini qidirish, tahlil qilish, boshqacha qilib aytganda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'stiradi.

Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilarning faolligi oshadi, o'quv materialini, o'rganilayotgan chet tiliga nisbatan qiziqishlari ortadi. Nutqiy faoliyat davomida tez fikrlash, tez qaror qabul qilish, nazariy bilimarni amaliyotga tadbiq qilish ko'nikmalarini rivojlantiriladi. Bu esa o'quv materialini o'zlashtirilishini tezlashtiradi.

Interfaol o'qitishda guruh-guruh bo'lib o'qitish, mikroguruhlar tuzish (3-5 kishidan iborat) samarali hisoblanadi. Bunda o'quv jarayonini quyidagicha tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'qituvchi mavzuni tushuntirishni kasbga yo'naltirilgan holda amalga oshiradi va ko'rgazmalilikdan keng foydalanadi. Shu bilan bir qatorda interfaol usullardan foydalanishda bir qator talablarga amal qilish zarur:

- 1) Muammoni yechish uchun o'quvchilar chet tilida turlicha fikr bildirishi talab etiladi;
- 2) O'qituvchi o'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplarning xatosini topib tanqid qilmasligi kerak, chunki o'quvchilardagi tashabbusni, erkin fikrlashni buzib qo'yishi mumkin.
- 3) O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan to'g'ri fikr va g'oyalarni rag'batlantirishi, qo'llab quvvatlashi lozim.
- 4) O'qituvchi o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va istaklarini jonlantirishi, ularga erkin fikr bildirishi uchun sharoit yaratib berishi zarur.
- 5) Turli ko'rgazmalilikdan o'rinli, maqsad va nutqiy vaziyatga mos foydalanish o'quvchilardagi o'qib o'rganish va nutqiy ko'nikmalar hosil qilishning samaradorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarni faollashtirish uchun o'yin, bahs-munozara, musobaqa, sayohat kabi o'qitishning ma'naviy usullari va ko'rgazmalilikdan turli nutqiy vaziyatlardan samarali foydalanish lozim.

Interfaol usuldan foydalanilganda juft-juft, guruh-guruh bo'lib ishlash shakllaridan ko'proq foydalaniladi.

- 1) Tanishtiruv jarayoni;
- 2) Mavzuga qiziqish uyg'otish, talabalar diqqatini o'quv materialiga qaratish;
- 3) Berilgan topshiriqqa to'g'ri javob berish va uni jihozlay bilish;
- 4) Ish natijasining tahlili, xatolar kelib chiqishi sabablarini aniqlash, o'z faoliyatini baholash.

Interfaol metod jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu metodning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- o'quv jarayonida o'quvchining fikr bildirishiga tanqidiy qarash tanbehning yo'qligi;
- har qanday bildirilgan fikrning rag'batlantirilishi;
- iloji boricha turli va ko'proq fikr bildirishi orqali ko'plab gaplar tuzishni mashq qilish;
- bildirilgan fikrlarni uyg'unlashtirish va rivojlantirish;
- fikrni qisqa va aniq ifodalay bilish;

Interfaol metodlar o'quvchilarni o'z shaxsiy qarashiga ega bo'lishiga va turli muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni o'rgatadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi ichki rezerv imkoniyatlarni ishga solish, ularning bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi faolligini oshirish hozirgi vaqtdagi eng muhim masalalardan biridir, chunki bu jahon andozalariga mos, zamon talabiga javob bera oladigan yetuk kadrlar tayyorlash ishiga ijobiy yordam beradi.

Shuning uchun ham hozirda jahon ta'lim sistemasida keng qo'llanilayotgan yangi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, o'qitish jarayoniga texnologik nuqtai nazardan yondashish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning eng muhim yo'llaridan biridir.

Darsni samarali tashkil etishda va o'quvchilarni unga jalb qilishda foydalaniladigan quyidagi interfaol metodlarni sanab o'tish mumkin:

- 1) Fikrlar hujumi (brain storming, aqliy hujum).
- 2) Tarmoqlar yoki shingil (klaster) metodi.
- 3) Bumerang.
- 4) Jiglo texnologiyasi.
- 5) Tarozi.
- 6) Ajurli arra.
- 7) Munozara.
- 8) O'z o'ziningni top.
- 9) Menyu.
- 10) Debatlar.
- 11) Tanqidiy fikrlar
- 12) Sinkveyn.
- 13) "Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash metodi"

Ushbu interfaol metodlardan foydalanishdan avval, o'qituvchi o'quvchilarning yoshini va bilim darajasini hisobga olishi kerak. Men mavzuimga muvofiq bu metodlardan boshlang'ich bosqichga moslarini tanlab oldim. Amaliyot davomida ulardan samarali foydalanishga harakat qildim. Masalan, interfaol metodlardan biri bo'lmish "Klaster" ya'ni "shingil" usulini 5-sinf o'quvchilarida qo'lladim. Bu usulga ko'ra, avval tayanch so'z doskaga yozib qo'yiladi. So'ng shu so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan so'zlar uning atrofiga yozib chiqiladi. Bu so'zlarni o'qituvchi sinf hamkorligida topib yozib borishi o'quvchilarni dars jarayonidagi faolligini yo'qotmaslikka olib keladi. Bunday ishning o'quvchilar bilim darajasiga mos olib borilishi esa ularda o'rganilayotgan mavzuga va fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

O'quvchilar bu so'zlarni berilgan tayanch so'z bilan bog'lab gaplar tuzadilar. O'qituvchi o'quvchilar faolligini yo'qotmaslik uchun yordamchi savollar bilan ularni gaplar tuzishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchining savollari o'quvchilarning xato qilib qo'yishdan cho'chib, passiv ishtirokchiga aylanib

qolishlariga to'sqinlik qiladi. O'quvchilarni xato qilib qo'yishlaridan qo'rqmaslikka o'rgatish lozim.

O'quvchilar o'ylash uchun berilgan vaqtda qancha ko'p fikr qilsa, ularning barchasini yozib borish kerak. Bu esa passiv o'quvchilarni ham qo'rqmasdan biror fikr bildirishga undaydi va o'quv jarayonida passiv bo'lib qolishlaridan saqlaydi.

Bu usulni "*Spring is coming*" mavzusida qo'lladim. Doskaga "*spring*" tayanch so'zini yozdim. Uning atrofiga esa bu so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan *nice, warm, beautiful, clean yard, green grass, baby animals, green trees, play, go for a walk* kabi so'zlarni yozib chiqdim. Keyin o'quvchilarga "*Use these words and write seven sentences about spring*" qabilidagi topshiriq berdim hamda vaqtni chegaralab qo'ydim. Ularning faolligini yo'qotmaslik maqsadida ularga "*Is spring warm or cold?*", "*Is spring beautiful season?*", "*What do you do in spring*" kabi savollar bilan gaplar tuzishga yordam berdim. Belgilangan vaqt tugagach o'quvchilardan tuzgan gaplarini o'qib berishlarini so'radim. Ular o'zlari tuzgan gaplarini o'qib berdilar. Ba'zi passiv o'quvchilarni xato gaplarini sinf jamoasi bilan to'g'riladik. Ushbu metoddan foydalanganimda dars davomida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda, gap tuzish ko'nikmalarini shakllantirishda bu usul samarali yordam berdi. Bu usul o'quvchilarni faollashtirishda, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini va mustaqil fikrlashlarini yanada rivojlantiradi.

Aynan 5-6 sinflarda leksik ko'nikmalarni shakllantirishda interfaol metodlardan "Sinkveyn" usuli ham yaxshi natija beradi. Bu so'z fransuz tilidan olingan bo'lib, besh qator degan ma'noni anglatadi. Uni dars jarayonida quyidagicha qo'llash mumkin:

1. Ma'lum bir so'z turkumiga oid bir so'zdan iborat mavzu beriladi. Masalan, 5-sinflarda "*Seasons and weather*" mavzusidan ot so'z turkumiga "*weather*" so'zini doskaga yozib qo'yiladi.
2. O'quvchilardan bu so'zga sifat qo'shish orqali yangi so'z birikmasi hosil qilishlari so'raladi:

Stormy weather

Bu so'zga birdan ortiq sifat qo'shish orqali ularning ifoda bayoni kengaytirilishi ham mumkin:

Stormy and rainy weather

3. Tanlab olingan so'zga oid xarakterni ifodalovchi fe'l va ravish qo'shish orqali gap hosil qilish mashq qilinadi. Masalan: *I don't like stormy and rainy weather, because I feel sad.*

4. Mavzuga ya'ni tanlab olingan "weather" so'ziga nisbatan munosabat bildiriladi: *In spring in Uzbekistan the weather is often rainy, but I like sunny days.*

Ushbu bildirilgan fikrni yanada kengaytirib ifoda qilish so'raladi. Bu esa leksik birliklarni o'rganishda shu so'z ma'nosini bilib olishdan boshlab, uni kichikroq bir nutqiy matnda ifodalanishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Bu usul o'quvchilarning lug'at zahirasiidagi so'zlar bilan yangi so'zlarni biriktirib so'z birikmalari, gaplar, kichik matn tuzishlarida leksik qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Shuningdek didaktik va rolli o'yinlar ham dars davomida o'quvchilarning faolligini oshirishga, ularda ko'tarinki kayfiyat uyg'otishga, ularni zerikib, passiv holatga tushib qolishlarini oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi, "Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjima-dagi muammolari", til uslubi-yati, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik orasidagi ilmiy tadqiqot bo'lganligi uchun ham dolzarbdir. Chunki til uslubi-yatini badiiy matnlarda tadqiq etish badiiy adabiyotsiz amalga oshmaydi, chunki til uslubi-yati badiiy matnning jozibadorligi, bo'yoqdorligi, ta'sirchanligi, obrazlilik, jonli tilga ega bo'lishi uchun ahamiyati katta. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni til uslubi-yatidan ajratgan holda o'rganib bo'lmaydi, til uslubi-yatiga e'tibor berilmasa matn badiiy matn bo'la olmaydi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjima-dagi muammolari tahlil etiladi. Xususan, madaniy sohada faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislarimiz tarjimada ifodalaydigan hodisalarni bilmay turib, ingliz tilida yozilgan badiiy matnlarning, maqollarning, hikmatli so'zlarning, prozaning tub ma'nosini, muallif nima demoqchi bo'lganini tushuna olmaydilar va tarjima qila olmaydilar. Teodor Drayzerning "The Titan" asarining tarjima-dagi muammolari mavzusida tadqiqotlar va izlanishlar olib borishdan oldin biz ko'plab adabiyotshunos olimlar va tanqidchilarning shu mavzuga yaqin bo'lgan ilmiy maqolalari va ilmiy asarlarini o'rganib chiqdik. Bu olimlar qatoriga biz Kaminskiy, Fedorov, Salomov, Засурский, Карчевская, Николаев, Сухаренко, Bronkovich, Parchevskaya kabilarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu borada, tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar to'laqonli amalgam oshirilgan.

The Trilogy of Desire"("Istak trilogiyasini") tashkil etgan romanlari "The Financier" ("Moliyachi") (1912), "The Titan" ("Titan") (1914) va "The Stoic" ("Matonatli") (1947) da kapitalistik monopoliyalarning kelib chiqishi va ularning hukmronligi mamlakat iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanday halokatli ta'sir etgani real ko'rsatilgan.

"Moliyachi" romanining qahramoni yosh bola Frank Kaupervud. U akvarumdagi katta qisqichbaqa oldiga kelib qolgan karakatitsa degan maxluqni

yutib yuborganini ko'radi. U bunday hayot shunday qurilgan ekan, zo'rlar zaiflar hisobiga yasharkan, degan xulosaga keladi. Frank kapitalistik jamiyatning odamiylikka yot egoistik qonunlarni tez o'zlashtiradi. U vaziyatga qarab beshafqatlik, beburdlik qiladi, yo'lidagi har qanday to'siqlarni bartaraf etadi.

Voqea fuqarolar urushi undan keyingi yillarda bo'lib o'tadi. Shimolning puldor korchalonlari urushda ko'proq foyda olishga intiladilar. Drayzer "Moliyachi" da o'z davri mamlakat iqtisodiy ahvolini katta realistik kuch bilan tasvirlab, boylik uchun kurashlarda ishlatilayotgan siyosiy nayranglar va yovuzliklarni ochiq ko'rsatadi. Hamma narsa aqchaga bo'ysundirilganligi burjua jamiyatda ko'pchilik omma uchun baxtli yashash mumkin emasligi juda yaxshi misollar bilan asarda ko'rsatilgan. Amerikada son-sanoqsiz fojiali voqealar, "puldor korchalonlardangina bir pog'ona past turgan sinfning vakili" degan aqidalar orqali real qilib aks ettirilgan.

Trilogiyaning ikkinchi romani "Titan" da Kaupervud birjachi dallol emas, balki u endi har tomondan rasmiy tus olgan yirtqich kapitalist sifatida ko'rinadi. Drayzer Kaupervudning yovuzligini qoralagani holda uning boylik, hukumronlikka intilishi, bu yo'lda uchragan hamma to'siqlarni shafqatsizlik bilan ta'riflaydi va shafqatsizlik bilan bartaraf etishi, yemirib tashlashni ham ko'rsatadi. U o'z nafsini qondirishni o'ylaydi. Shuning uchun ushbu asar "Istak trilogiyasi" deb ataladi. Drayzer Kaupervudning ichki dunyosi qashshoq ekanini ta'kidlaydi. Lekin uning chaqqon, g'ayratli, kuchli, aql-idrokli ekaniga qoyil qoladi. Bu esa uning qarashlaridagi ziddiyatlardan, ijtimoiy voqelikni biologik qonunlar asosida talqin qilishidan kelib chiqadi. Yozuvchi katta kapitalistik shahar Chikagoni, shuningdek, kuch-g'ayratga to'lgan bahaybat Kaupervudning o'zini ham qudratli "Titan", deb ataydi.

Trilogiyadagi "Moliyachi" va "Titan" romanlari Drayzer realistik ijodining yangi bosqichi, imperializm davriga kirgan kapitalizm korchalonlarining vahshiyona harakatlarini fosh etgan asarlardir. Ulardagi Kaupervud obrazi yozuvchining ulkan muvaffaqiyatidir.

Matonat” yulg’ichilikning foydasizligini tushunib yetgan moliyachi haqidagi hikoyalar to’plamidir. Ushbu asarlar Amerika kitobxonlarining zoriqib kutgan asarlari bo’ldi. Shunday bo’lsada, muxoliflari Teodor Drayzerga shubha bilan qarashadi.

Teodor Drayzer hayotiga N. Lev Tolstoy, Jek London kabi taniqli adiblarning ijodi katta ta’sir ko’rsatadi. Buni Teodor Drayzerning o’zi ham haqli ravishda tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk adiblarning deyarli barcha asarlarini o’qib chiqqanligini ta’kidlab, uning qarashiga katta ta’sir o’tkazganligini badiiy ijod bo’sag’asiga yetaklab kelganligini alohida e’tirof etib o’tadi. Teodor Drayzer qo’liga ilk bora qalam olar ekan kelajakda Amerika tarixini va haqli hayotidagi muhim voqealarga qo’l urishini o’z oldiga maqsad qilib qo’yadi. Shuning uchun ham yozuvchi o’zining asarlarida qashshoqlar hayotini, og’ir sinov so’qmoqlarini ko’proq qalamga oladi.

Yosh yozuvchining xalq hayotiga yaqin turishi, unda demokratik dunyoqarashning shakllanishiga va bu esa uning tez orada Amerika burjua jamiyati illatlarini payqab oluvchi va ularni fosh etuvchi yirik gumanist yozuvchi sifatida tanilishga yordam berdi.

Demak, adabiyotni o’qitishda interfaol usullarning ahamiyati juda katta. Interfaol metodlar bilan ishlashning bir qator afzalliklari bo’lib ularni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ta’lim oluvchilar bilimlarini qiziqish va ishtiyoq bilan o’rganadilar. Bu esa ularni faollashtirishga olib keladi.

2. Dars jarayonidagi faollik, o’qib-o’rganish bilan bog’liq faoliyatda yuzaga kelgan muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

3. Ta’lim oluvchilarga nisbatan individual yondashuvni keltirib chiqaradi.

Ma’lumki bunday yondashuv shaxs xarakterining o’ziga xos sifatlarini (qobiliyati, qiziqishi, xotirasi, bilim darajasi) hisobga olgan holda auditoriyada va auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilishning samarali usullari va yo’llarini tanlash imkonini yaratadi.

4. Ta'lim jarayonida juft-juft, guruh-guruh bo'lib ishlash usullaridan keng foydalaniladi.

Bu esa ta'lim oluvchilarda o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashish, jamoaviy ishlash, ijodkorlik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

5. Ta'lim oluvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Ular bilimlarni tayyor holda olmaydilar, balki bilim olish jarayonidagi faolliklari tufayli olinayotgan bilimlarni mustaqil ravishda taxlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga o'rganadilar. Shuningdek ular turli adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatilganliklari uchun ham ularda mustaqil o'qish, izlanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

6. Ta'lim oluvchilarda bilim olishga nisbatan kuchli motivatsiya hosil qilinadi.

Bu esa ularga olinayotgan bilimlari asosida ijodiy mushoxada yuritish va bu bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

7. O'rganilayotgan xorijiy tildan nutqiy muloqotda foydalanishga extiyoj yaratadi va ta'lim oluvchilarda muloqotni amalga oshirishga nisbatan istak-xoxish hosil qiladi.

Tabiiyki, ularni yanada faollashtiradi va xorijiy tildagi nutqiy muloqotni ularning kundalik extiyojiga aylanishga olib keladi. Demak, ularda o'zaro muloqotga kirishish, shaxsiy fikr bildirish kabi nutqiy ko'nikmalar shakllantiriladi.

8. Ta'lim oluvchilarda o'z kuchalariga bo'lgan ishonch ortadi, ularda xato qilishdan qo'rqish, cho'chish kabi psixologik to'siqlarni yengib o'tish imkoni yaratiladi.

9. Darsdan tashqari paytda ham mustaqil o'qib o'rganishga va bildirilayotgan fikrlarga nisbatan tanqidiy fikr bildirish, ularda o'z qarashlarini isbotlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot fanining ahamiyati juda katta. Jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar adabiyotda namoyon bo'ladi. Har qanday asarni o'qigan kitobxon undan o'ziga kerakli xulosa chiqaradi. Asar

mualliflari o'zlarining ijodiy faoliyatlarida o'z davri bilan hamnafas bo'lib, xalqning turmush tarzi, orzu-istaklarini aks ettiradilar.

Barcha fanlar qatorida adabiyot fani ham o'rganilishi zarur bo'lgan predmetlardan biridir. Bugungi kun talabalariga yoki o'quvchilariga adabiyot yoki ingliz adabiyotini albatta zamonaviy yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda o'rgatish lozim. Biz quyida bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini o'qitish va o'rgatishga doir bir nechta usullarni berishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ILMIY VA BADIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T. 2008.
2. Karimov I.A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti" mavzusidagi xalaro konferentsiyaga tabrik nutqi. Xalq so'zi 2012 y 16-17 fevral.
3. Karimov I.A., "Barkamol avlod orzusi", Sharq nashriyoti. T., 1997 yil.
4. Бархударов Л.С., Язык и перевод, – М., 1975
5. Гальперин И.Р., Текст как объект лингвистического исследования, – М., 1981.
6. Комиссаров В. Н., Лингвистика перевода. – М., 1980
7. Маслов Ю.С., Введение в языкознание, – М., 1975
8. Реформатский А.А., Введение в языковедение, – М., 1996
9. Швейцар А. Д., Перевод и лингвистика, – М., 1973
10. "Вопросы теории и методики учебного перевода". М., 1950. "Вопросы языкознания". М., 1970, N 4 (статьи А.Д. Швейцара.)
11. Комиссаров В.Н., Слово о переводе, – М., "Международные отношения", 1973.
12. Ревзин И.И., Розенцвейг В.Ю., Основы общего и машинного перевода, – М., "Высшая школа", 1964. "Теория и критика перевода". Л., изд-во ЛГУ, 1962.
13. "Тетради переводчика", под ред. Л.С. Бархударова. М., "Международные отношения", NN1 –11, 1963–1974.
14. Федоров А.В., Основы общей теории перевода, – М., "Высшая школа", 1968.
15. Catford J.C., A Linguistic Theory of Translation, London, 1965.
16. Nida E., Toward a Science of Translating, Leiden, 1964.
17. Nida E., Taber Ch. The Theory and Practice of Translation, Leiden, 1969.
18. Бархударов Л.С., Жукова Ю.И., Квасюк И.В., Швейцар А.Д. Пособие по переводу технической литературы (английский язык). М., 1967.

19. Катцер Ю.М., Кунин А.В., Письменный перевод русского языка на английский, -М., 1964.
20. Комиссаров В.Н., Рецкер Я.И., Тархов В.И. Пособие по переводу с английского языка на русский. Ч. 1. М., "Изд-во лит-ры на иностр. яз.", 1960, ч. 2, М., "Высшая школа", 1965.
21. Левицкая Т.Р., Фитерман А.М. Пособие по переводу с английского языка на русский, - М., "Высшая школа", 1973.
22. Роганова З.Е., Перевод с русского языка на немецкий, -М. 1971.
23. Роганова З.Е., Пособие по переводу с немецкого на русский язык, -М., 1961.
24. Гак В.Г. Беседы о французском слове. М., "Международные отношения", 1966.
25. Гак В.Г., Ройзенблит Е.Б. Очерки по сопоставительному изучению французского и русского языков. М., "Высшая школа", 1965.
26. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparée du français et de l'anglais (méthode de traduction). P., 1958.
27. Щекина Е. Итальянский язык. Устный перевод. М., 1986.
28. Апполова М. А. Грамматические трудности перевода М.: 1977.
29. Бударкевич Н. М. Славина Н. М. Сборник упражнений по переводу с английского языка на русский. М.: 1974.
30. Тетради переводчика. Сборник под редакцией Бархударова Л. С. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.: 1980.
31. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова М. Галь Нора. Слово живое и мертвое. М.: 1975.
32. Гачечиладзе Гиви. Введение в теорию худ. перевода. Тбилиси. 1970.
33. Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. Сб. статей. М.: 1978.
34. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. М.: 1980.
35. Комиссаров В. Н. Пособие по переводу с английского языка на русский. М.: 1965. Ч. 1,
36. Крупнов В. Н. В творческой мастерской перевода. Курс перевода. М.: 1979.
37. Левицкая Т. Р., Фитерман А. М. Проблема перевода. М.: 1976.
38. G'ofurov I. va boshqalar, Tarjima nazariyasi, Toshkent, 2012. 215 bet.

Internet saytlari:

1. <http://www.lingvoda.ru>
2. <http://www.trworkshop.net>
3. <http://www.moscowinterpreter.com/>
4. <http://www.spintongues.msk.ru/>
5. www.mglu.by.ru
6. Статьи по переводу на Кругосвете
7. www.rheme.danshin.ru